

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KAFEDRASI**

**Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish bakalavr ta‘lim
yo‘nalishining 4-v kurs talabasi**

OTAXONOVA NASIBA YAKUPBOEVNANING

**«BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINI
MATN TUZISH ORQALI NUTQINI O‘STIRISH»**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dots. B.Utemuratov

Kafedra mudiri:

f.f.n. S.Shinnazarova

NUKUS – 2018

Himoya qilishga ruxsat etildi:

Fakultet dekani	Q.Bekniyazov.
Kafedra mudiri:	f.f.n. S.Shinnazarova
Ilmiy rahbar:	dots.B.Utemuratov
Kotib:	Ass. T.Baynazarov

Bitiruvchi Otaxonova Nasiba «**Boshlang`ich sinf o`quvchilarini matn tuzish orqali nutqini o`stirish**» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini ko`rib chiqib davlat attestatsiyasi komissiyasining

Qarori:

Bitiruvchi Otaxonova Nasiba Yakupboevnaning «**Boshlang`ich sinf o`quvchilarini matn tuzish orqali nutqini o`stirish**» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga
«____» bahosi qo'yilsin.

MUNDARIJA

KIRISH

I-BOB. O‘quvchilarning matn tuzish orqali nutq o‘stirish ko‘nikmalarini shakllantirish – til ta’limining bosh vazifasi

1.1. Matn – nutqiy hodisa sifatida

1.2. Matn tuzish orqali nutq o‘stirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....

I-bob bo‘yicha xulosalar

II-BOB. Matn tuzishga o‘rgatish – ijodiy fikrlashga yo‘naltirishning omili sifatida

2.1. Ona tili darslarining ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishdagi roli.....

2.2. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatish usullari.....

2.3. Lug‘at ustida ishlash orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ahamiyati.....

II-bob bo‘yicha xulosalar

XULOSA

FOYDALANILGAN

ADABIYOTLAR.....

KIRISH.

Ona tili ta'limining bosh maqsadi o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini hosil qilish, shuningdek, aniq va teran fikrlash, o'z fikrlarini ixcham, tushunarli, jo'yali bayon qilish malakasini tarkib toptirishdan iboratdir.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishning dastlabki qadami ularning so'z zahirasini oshirishdan boshlanadi. Yetarli so'z zaxirasiga ega bo'lgan shaxsgina til birliklarini o'rinli qo'llab, fikrini to'g'ri ifodalay oladi.

Insonda ruh, tafakkur va til o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ijodiy va mustaqil fikrli, ma'naviy etuk shaxsni tarbiyalashda ona tili va uning ta'lim usuli, shuningdek, vositalarining o'rni, roli beqiyosdir. Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'z g'alar fikrini anglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Ona tili ta'limi standarti ko'rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalagan fikrni anglash va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga, o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ta'limning yangi shakllarini qo'llash uni amaliyotda sinab ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi mazmunini yangilash, ta'lim usullari takomillashtirish, o'qituvchilarni ana shunday usullar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” oldiga ham katta ma'suliyatli vazifalar qo'yildi. Shunday dolzarb masalalardan biri ona tilini o'qitishdan asosiy maqsad uning

qonunyatlarini o'rgatishdan iborat emas, balki, mustaqil fikrlaydigan ijodiy fikr mahsulini nutq shakliga mos ravishda og'zaki va yozma bayon qila olish ko'nikma va malakalarini egallashdan iborat deb belgilab qo'yildi.

Haqiqatdan ham umumiy o'rta ta'lim jumladan boshlang'ich ta'lim uchun chiqarilgan davlat ta'lim standarti (DTS) dastur yangi darsliklarda bu ma'salaga katta ahamiyat berildi .

Jumladan "Savod o'rgatish metodikasi"da ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini dastlab gap va matn o'qitishga o'rgatishdan boshlaydi. Unda gapni qanday o'qitish va unga qanday erishish matnni qanday o'qish va ularning mazmunini qanday tushunish haqida ma'lumot beriladi

Bundan tashqari "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" (I-II qism) da ham matn ustidaa ishlash haqida metodik maslahatlar,usullar bayon qilingan

Unda boshlang'ich sinflarda har xil matnlar bilan tanishtiradiganligi va ularni o'qishga o'rgatish usullari haqida metodik ma'lumotlar beradi.

Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan matn ustida ishlash tajribalari haqida "Boshlang'ich ta'lim" jurnalida ham har xil metodik maslahatlar berilib borilmoqda. Bu ayniqsa, DTS talablari darajasida o'qitish uchun uslubiy qo'llanma vazifasini o'taydi. Hatto, boshlang'ich sinf o'quvchilariga yangi pedagogik texnologiya talablarini, usullarini singdirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar nutqini rivojlantirish, boyitish va og'zaki hamda yozma savodxonligini oshirishning asosiy omillaridan biri ularni matn tuzish orqali nutqini o'stirishdir. Matn yaratish ijodiy ish bo'lib boshlang'ich sinf o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishida katta ahamiyatga ega. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilari zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Boshlang'ich sinflarda dastlab gaplarni o'qish, ixcham matnlar yaratish, keyinchalik esa bayon yozishga o'rgatish orqali matn ustida ishlar olib

boriladi. Matnning ham xilma xil turlari mavjud, ulardan o'rganilayotgan til hodisalariga oid matnlar, badiiy matn, ilmiy va ramziy matnlar ustida ish olib boriladi. Lekin har bir matnning o'ziga xos xususiyatlari mavjud boshlang'ich sinf o'qituvchisi faqat shularni dars jarayonida o'quvchilarga o'rgatib borishi lozim. Demak, bunday ma'suliyatni amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga katta ma'suliyat yuklanadi. Bu esa ushbu malakaviy ish mavzusining eng dolzarb masalalaridan biriga bag'ishlanganligidan dalolat beradi.

Malakaviy ishning maqsad va vazifalari ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn yarata olish orqali nutqining rivojlanishida ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Buning uchun, albatta, har xil usullar va samarador metodlarni aniqlash va hayotga tadbiiq qilish zarur. Biz ham ushbu malakaviy ishimizda matn yaratishning yangi-yangi usullarini qo'llash va imkoniyatlarini qidirib topishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari oldiga katta ma'suliyat qo'yiladi. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak.

- DTS talablaridan kelib chiqib boshlang'ich sinf ona tili darslarida berilgan topshiriqlarni aniqlash;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini matn yaratish va uni o'z og'zaki va yozma nutqlarida foydalana olish usullarini hayotga tadbiiq qilish;
- har bir darsda matn ustida ishlash yo'llarini aniqlash va uni dars jarayoniga olib kirish;
- matn turlarini aniqlash va uni har bir sinfda bosqichma-bosqich amalga oshirib borish;
- matn ustida ishlash tajribasi bilan o'rtoqlashish va takliflar kiritish;
- matn ustida ishlash o'qish va yozishga o'rgatish;
- grammatik topshiriqli bayon yozishga o'rgatish;
- tasvir elementlari bo'lgan bayon yozishga o'rgatish va boshqalar.

Malakaviy ish obyekti qilib 3-4 sinf darsliklarida berilgan har xil matnlar olindi. “Ona tili”, “O‘qish” darsliklaridagi ilmiy, badiiy, ramziy matnlar, mashqlar ta’riflar tanlandi.

Malakaviy ishning natijalarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uslubiy qo‘llanma sifatida foydalanishlari mumkin. Shuningdek, matn lingvistikasi bilan qiziquvchi talaba, magistrlar ham o‘rganishi mumkin.

Malakaviy ishning tuzilishi: Kirish, ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. O‘QUVCHILARDA MU‘STAQIL MATN YARATISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH – TIL TA‘LIMINING BOSH VAZIFASI

1.1. Matn – nutqiy hodisa sifatida

Matn – nutqiy hodisa bo‘lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmuniy birikishidir. O‘z tuzilishiga ko‘ra gap xat boshi (abzas), bo‘lim qism, boblardan tashkil topadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan yaratilgan matnlar asosan gap, xat boshi va qismdan iborat bo‘ladi. Bahor, dalalarda ish qizg‘in shaklidagi to‘rtgina so‘zning mazmunan birikishidan tortib, butun boshli hikoyalar, ertaklar, badiiy asarlar hammasi matn hisonlanadi. Matn narsa va hodisalarni tasvirlaydi, so‘zlovchining munosabatini aniqlaydi.

Boshlang‘ich sinfda tasvirlash, rivoyat va hikoyalash, muhokama qilish usullaridan ko‘proq foydalaniladi. Bu xislatlar o‘rtasida aniq chegara bo‘lmasda, ularning har qaysisi o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Tasviriy matnda voqealarda ishtirok etadigan shaxslar bo‘lmaydi. Unda asosan, tabiat manzarasi, voqea-hodisalar, ish jarayonlari tasvirlanadi.

Tasvirlash kuzatuvchanlik bilan bog‘liq shuning uchun ona tili darslarida bilalarni kuzatuvchanlika o‘rgatish, narsa, voqea, hodisalardagi eng muhim belgi va xususiyatlarni ko‘ra bilishga odatlantirish zarur.

Rivoyatlash va hikoyalash matnni tasviriy matndan, voqeaning izchillikda berilganligi, undagi ishtirok etuvchi shaxslarning borligi, diologik nutqdan foydalanish kabilar bilan ajraib turadi. Matnning bu turida dalillar va ularning tafsilotiga alohida o‘rin ajratiladi, voqealar hikoya tarzida tasvirlanadi. Ona tili mashg‘ulotlarida bunday matnlardan juda ko‘p foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Muhokama tarzidagi matnlar yaxshilik va yomonlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinxo‘rlik, to‘g‘rilik va egrilik, do‘stlik va dushmanlik, sabr-qanoat va sabrsizlik kabi mavzularda bo‘lishi mumkin.

Ayniqsa, xalq maqollarini muhokama matnining mavzusi qilib tanlash maqsadga muvofiqdir.

Badiiy uslubda yozilgan matnlarning o'ziga xos xususiyati ularda tasviriylik va ta'sirchanlikning kuchliligidir.

Ommabop matn ko'proq matbuotga xos bo'lib, u xabar, maqola kabilarda namoyon bo'ladi. Ona tili mashg'ulotlarida ommabop matnlar ustida ishlashda avvalo bu usulning til xususiyatlari ustida ishlashga to'g'ri keladi.

Ilmiy matn ona tili mashg'ulotlarida ilmiy matnlardan keng foydalaniladi.

Ramziy matnlar ona tili darslarida salmoqli o'rin tutadi. O'quvchilarga mashqlar davomida bu matnlardan foydalanishda buyruqlar, e'lonlar, ariza, tarjimai hol, telegramma, xat yozish kabilar o'rgatib boriladi.

Matn mazmunini qisqartirib yoki kengaytirib bayon qilish ham o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradi

3-4-sinflarda o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tugallanmagan hikoyalar mashqi yaxshi samara beradi. O'qituvchi o'quvchilarga qandaydir bir hikoyani boshlab beradi, ular esa uni davom ettirishlari kerak. Masalan, "Sehrli kitob":.

"...Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim o'tgan zamonlarda bir qishloqda chol yashar ekan. U o'qishga juda qiziqar, o'zi hikoya va ertaklar yozar ekan. Kunlarning birida u uyidagi bir kitobni o'qimoqchi bo'libdi. Lekin..."

Maktabda fan asoslarini egallash, ko'p jihatdan, ona tili ta'limining qo'yilishiga bog'liq. O'quvchilar tilga oid bilimlarini, asosan, dars jarayonida o'rganadilar. Ularga tildan beriladigan bilimlarni mustaqil ishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ta'limda faollik va mu'staqillik muammosi bir-birini to'ldiradigan, o'zaro uzviy bog'lagan pedagogik kategoriyalar hisoblanadi. Darslarda o'tkaziladigan mustaqil ishlar o'quvchilarning faolligini oshirishning asosiy vositalaridan biri sanaladi.

Kishi mu`staqil aqliy faoliyat ko`rsatish, mustaqil o`rganish orqaligina fan asoslarini puxta egallaydi. Kitob ustida mustaqil ishlay olish malakalari, dastavval, boshlang`ich sinflarda hosil qilinadi, bu malakalar yuqori sinflarda takomillashtiriladi. Darslarda tashkil etiladigan mustaqil ishlar o`quvchilarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirishning etaklovchi omilidir. Umumiy ta`lim predmetlaridan biri sanalgan "Ona tili" o`quvchilarda mustaqillikni taraqqiy ettirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega.

Boshlang`ich sinflarda tashkil qilinadigan mustaqil ishlar hajmi va murakkabligi jihatidan uch guruhga bo`linadi: tayyorlovchi; yarim mustaqil yoki oraliq; natijasi matnga teng mustaqil ishlar.

Tayyorlovchi mustaqil ishlar birinchi sinfdan boshlanib dastlabki mustaqil ishlar o`quvchilarni o`quv qurollaridan foydalanish, o`qish va yozish paytida partada o`tirish, o`quv qurollaridan foydalanish o`rgatilib, bu ishlar asta-sekin murakkablashtirib boriladi.

Yarim mustaqil yoki oraliq mustaqil ishlarda savollar, darslik, bosma asosli tarqatma materiallar, ko`rgazmali qurollardan foydalaniladi. 3-sinfda "Gapda so`zlarning bog`lanishi" mavzusi o`tilganda quyidagicha mustaqil ish o`tkaziladi.

1. Gapni so`zlarga ajrating, har bir so`zning so`rog`ini aniqlang.

Qor yog`di.

2. Nuqtalar o`rniga tegishli so`zni qo`yib, gapni kengaytirib yozing.

...qor yog`di. (oppoq, qizil, ko`m-ko`k)

Oppoq qor yog`di.

3. Gapni bugun, qalin so`zlari yordamida kengaytirib yozing.

Bugun oppoq, qalin qor yog`di.

Natijasi matnga teng keladigan mustaqil ishlar. Grammatikadan o`rganilgan bilimlarga bog`langan holda ijodiy diktant, hikoya, ish

qog`ozlari, bayon, insho va boshqa ish turlaridan mustaqil ish sifatida foydalanish mumkin. Bu ishlar hajmning kattaligi, bajarish uchun ko'p vaqt talab qilishi bilan boshqa mustaqil ishlardan farq qiladi.

1.2. Matn tuzish orqali nutq o`stirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish

“Ta’lim to’g’risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablariga ko’ra “Boshlang’ich ta’lim umumiy o’rta ta’lim olish uchun zarur bo’lgan savodxonlik, bilim va ko’nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan ta’limdir”

Shuning uchun ham “bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang’ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar bекitib qo’yilishini oddiy oddiy mantiqning o’zi talab etadi”. Darhaqiqat, shunday ekan boshlang’ich sinf o’quvchilari bizga erkin fikrlay oladigan ijodiy fikr mahsulini nutq shakliga mos ravishda og’zaki va yozma bayon qila olish ko’nikma va malakalarini egallagan barkamol avlodning boshlang’ich avlodini yetkazib berishilari kerak

Buning uchun esa DTS talablariga mos erkin matn yarata oladigan o’quvchilar tarbiyalash lozim.

Jumladan, boshlang’ich sinflarning 3-sinflari uchun nashr qilingan “Ona tili”, “O’qish” darsliklarida bu masalaga asosan matn ustida ishlash haqida ma’lumotlar berilgan. Boshlang’ich sinflar uchun tayyorlangan 2-4-sinf “Ona tili” dasturida dastlab, kichik matnlar yaratish, matn yaratish usullari haqida ma’lumotlar beriladi. Uning uchun reja tuziladi va matn o’rganilishidan bir hafta oldin o’quvchilarga e’lon qilinadi. Yoki 4-sinfda Q.Muhammadiyning she’ri o’rganilayotganda she’rning bolalar uchun yozgan asarlari namoyish e’tilib, ular haqida qisqa hikoya qilib beriladi.

Matnni ifodali o’qishda, masalan, 3-sinfda o’rganiladigan Jumaniyoz Jabborovning “Istiqlol” she’rini magnitafon orqali o’qib eshittiriladi. Demak, boshlang’ich sinda matn ustida ishlash usullari xilma-xil bo’lib, biz ularni o’z faoliyatimizda takomillashtirib boramiz.

Boshlang’ich sinfda she’riy asar ustida ishlash ham o’z metodikasiga ega. Bunda birinchi bosqich she’riy asarni o’qishga tayyorgarlik, ikkinchi

bosqich esa asar mazmunini tahlil qilishdir. Bunda quyidagi bosqichlar amalga oshirilishi mumkin:

1. Tanlab o‘qish. Bu topshiriq orqali o‘quvchi berilgan vazifaga xos parchani o‘qiydi. Masalan, 4-sinfda “Tabiatdagi o‘zgarishlar berilgan qismini topib o‘qing” degan topshiriq berilsa, ular “Oltin kuz” qismini ifodali o‘qiydilar va hokazo.

2. Matnni tasvirlash. Unda birinchidan so‘z bilan ikkinchidan grafik tasvirlash amalga oshiriladi. So‘z bilan tasvirlashda o‘quvchilar o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qiladilar. Bunda tabiat hodisalari, manzaralar, kishilarning ko‘rinishi, hulq atvorlari qayta badiiy tasvirlab beriladi. Demak, bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilari og‘zaki nutqining o‘shishiga yordam beradi. Grafik tasvirlash esa ko‘pincha uyda bajariladi. Buning uchun o‘quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o‘qib chiqadilar. Mazmuni o‘lashtirib bo‘lgach, unga mos rasm chizadilar va hokazo.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matn tuzishga o‘rgatish turli usullar yordamida amalga oshiriladigan o‘qituvchining ijodiy faoliyati hisoblanadi. Lekin hozirgacha bu borada qator ishlar amalga oshirildi.

Har bir sinf yakunida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar ta‘lim predmetlari bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarida o‘z aksini topdi. Jumladan, I-IV sinf “ona tili” va “O‘qish” bo‘yicha quyidagi talablar belgilab qo‘yildi.

1. O‘qish texnikasi bo‘yicha miqdoriy ko‘rsatkich bir daqiqada 80-90 so‘zni o‘qiy olishi kerak.

Bunda talablar:

- harflarni to‘g‘ri talaffuz etish;
- so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish;
- gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va obrazli o‘qish;
- gapda tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish;
- sanash va ajratishlardan to‘g‘ri foydalanish;
- so‘z urg‘usiga rioya qilish;

- ohangga rioya qilish;
- ilmiy atama va ramzlarni to‘g‘ri talaffuz qilish;

2. Matn mazmunini va o‘zgarlar fikrini anglash malakasi bo‘yicha:

Miqdoriy ko‘rsatkich: 10 daqiqada, 4-5 sahifali matn o‘qib qayta so‘zlab bera olish;

Talablar:

– og‘zaki, nutqning to‘g‘ri ravon aniq tushunarli va tasirchan bo‘lishi;

- monologik nutqning ravon bo‘lishi;
- diologik nutqda ta’sirchan izchil, mantiqiy jihatdan aniq bo‘lishi.

2. Diktant yozish malakasi:

Miqdoriy ko‘rsatkich: 40-50 so‘zdan iborat diktant yoza olish.

Talablar:

- imlo xatolariga yo‘l qo‘ymaslik.
- ijodiy matnning mantiqiy jihatdan izchilligi
- berilgan izohlarning aniqligi
- lug‘atlarning to‘g‘ri va aniq bo‘lishi

3. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo‘yicha

Miqdoriy ko‘rsatkich: 5-6 gapdan iborat bo‘lgan matnni 1 fikr ehtiyoji bilan bog‘liq mavzu asosida yaratish.

Talablar:

– Mavzudagi gaplarning mazmunini o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi ko‘rsatilgan mavzu doirasida birlashishi;

- Harf va tinish belgilarini to‘g‘ri yozish
- Husnixatda qatorlarni to‘g‘ri joylashtirish
- So‘zlar orasidagi oraliqni to‘g‘ri belgilash
- Tasvirda tilning ifoda vositalaridan foydalanish;

– Matnda so‘zlarni takrorlashdan takrorlanishdan saqlanish va sinonimlarni qo‘llay olish

- Matnda xat boshilarining yaqinligi va fikr izchilligini ta’minlash

- Uyadosh so‘zlardan foydalana olish
- Boshlang‘ich ta‘lim yakunida o‘quvchilar kamida 20 ta kichik hajmdagi she‘rni yoddan aytib bera olishi shart

Demak, DTS da ko‘rsatilgan talablarni to‘g‘ri bajarish uchun albatta , ona tili o‘qituvchilari oldiga katta talablar qo‘yiladi.

O‘quvchilarning nutqiy taraqqiyotini ta‘minlashda matn, uning tahlili va matn yaratish eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Zero, matn-inson tafakkurining voqealanishi, tugal bir mazmunining kashf etilishi, yuzaga chiqishidir. Matn ustida ishlash va matn yaratish usullari g‘oyatda xilma-xil. Biz ularning ayrimlari xususida fikr yuritamiz.

Grammatik usul.

1. Berilgan matnda nechta gap borligini aniqlash. Matndagi gaplar o‘zaro qanday bog‘lanishini sharhlash.
2. Matndagi o‘zakdosh so‘zlarni topish. Ularni yonma-yon yozish.
3. She‘riy asarlar mazmunini nasriy yo‘l bilan so‘zlab berish.
4. She‘riy parchani ifodali o‘qish va unda berilgan ma‘nosi yaqin so‘zlarni aniqlash.

- Ma‘nosi bir so‘z nima?

- Soya bilan ko‘lanka.

Bilasizmi, aslida,

Olis joyni der uzoq.

Baland erni tepalik,

Quyosh – oftob, ko‘cha – yo‘l,

Ensiz – qisqa, enli – keng,

Oymomo – shamsiqamar,

Bir mazmunni anglatar.

Ma‘nosi yaqin so‘zlarni chiziqcha bilan yonma-yon yozish, ajratilgan so‘zlarga qarshi ma‘noli juftini topib yozish, bu so‘zlar qaysi so‘z turkumiga kirishini aniqlash.

Ijodiy usul.

1. Matnga sarlavha qo'yish. Uning rejasini tuzish.
2. Matndagi so'roqlar o'rniga mos so'zlarni topib o'qish.
3. Matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish.
4. Matn mazmunini so'zlab bering.
5. Matnni o'qing va ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nolarini izohlang.

3-sinf Ona tili darsligida 307-mashq shunday berilgan.

Nazokat va go'zallik timsoli

Mehr-oqibat chashmasi, nazokat va go'zallik timsoli, olamni yashnatuvchi va yaratuvchi ulug' zot – ayollarni sharaflash uchun 8-mart bayram etib belgilangan.

Shu kuni barcha ayollarga ta'zim va hurmat bajo keltirib, ularga gullar tortiq qilinadi. Ayol suyuqli ona, oila tayanchi, ustoz va murabbiydir.

Umuman olganda, ona tili darsliklari so'zga ehtiyoj hosil qiladigan, so'z boyligini oshiradigan o'quv-topshiriqlariga, matnlarga boy bo'lishi, leksikologiya har bir til sathining tarkibiy qismiga aylantirilishi lozim va zarurdir, har bir dars matn tahlili bilan boshlanib, matn yaratish bilan tugallansagina, biz o'qituvchilar ona tili ta'minining bosh maqsadga erishgan, o'quvchilarning nutqiy taraqqiyotini ta'minlagan, ularni nutq sharoitiga mos ravishda go'zal ixcham va ravon so'zlashga o'rgatgan, so'z san'ati ilmiy bilan tanishtirgan bo'lamiz.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda turli didaktik, ijodiy o'yinlardan foydalanish bolalarni tez o'ylashga, fikr yuritishga, hozirjavob bo'lishga o'rgatadi.

Masalan:

«Qani top!» o'yini

O'quvchilarga shivirlab so'z aytiladi. Paxta, kitob... kabi. O'quvchi lablar qimirlashidan so'zlarni topadilar, diqqatini oshiradilar. «O'ylab top!» o'yinida so'zlarning birinchi bo'g'ini aytilib, keyingi bo'g'ini o'quvchi tomonidan aytiladi. Ar-cha Ran-da kabi.

«Xotira» o'yini. O'qituvchi so'zlarni aniq, ammo tez aytadi. Gul, qalam, gulzor, qalamdon. O'quvchilar ham shu tartibda takrorlab aytishi lozim. Xat-savod o'rgatish davri o'quvchilar faoliyatini hal qiluvchi bosqich hisoblanadi.

Bolaning aqli, irodasi, dunyoqarashi shu davrda shakllanadi, rivojlanadi.

O'yinlar esa ularning qiziqishini oshiradi, kayfiyatini ko'taradi. Didaktik o'yinlar, amaliy mashg'ulotlar o'quvchining nutqini o'stiradi.

Darsda shunday topshiriklardan foydalanish mumkin.

1– topshiriq.

Savollar javobini harf xaltasida yozinglar.

- Bug'doydan nima olinadi? Un
- Quyosh botguncha bo'lgan vaqt? Kun
- Osmonda oy chiqqan payt? Tun

2-topshiriq.

Bosma harflarni yozmaga aylantirib yozing, qarama-qarshi ma'noli so'zni belgilang. Un, kun-tun

3-topshiriq.

Ikki-ikki, aka-uka, don-non, do'l-ko'l

O'quvchilar bilimiga qarab, tarqatma asosida gap yoki matn tuzadilar. Eng yaxshi mazmunga ega bo'lgan gap yoki matnga rag'bat beriladi. Bu musobaqa darsida jarima kartochkasi berilmaydi. Bitta rag'bat kartochkasini olmaganlik jarima hisoblanadi. Dars yakunida yuqori reytingni egallagan o'quvchi aniqlanadi. Ular bilan «Kim bilag'on» o'yini o'tkaziladi. O'yinda qisqa, qiziqarli savollardan beriladi. Savollarga tez va qisqa javob berilishi lozim. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. Eng oxirida qolgan o'quvchi musobaqaning mutloq g'olibi bo'ladi.

XXI asrda til ta'limini rivojlantirish va uning nufuzini oshirishda pedagogik, metodik va psixologik tamoyillarga amal qilib, har bir o'qituvchi o'z kontseptsiyasiga ega bo'lishi va tizimli ravishda bolalar bilan ona tili o'qitishning eng ma'qul uslublarini qo'llash orqali ko'zda tutgan maqsadiga erishishi aniq.

Bunda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

1. Bolalar ruhiyatini chuqur o'rganib, ularning har biriga o'ziga xos munosabatda bo'lish;
2. Dars jarayonida darsdan keyingi mashg'ulotlarda bolaning doimo yaxshi kayfiyatda bo'lishini ta'minlash;
3. O'zi o'ylab topgan so'z, gap matnini ifoda etishi va undan zavqlanishiga imkon berish;
4. Nutqida tasviriy vositalarni ishlatishga o'rgatish;
5. Bolada tinglash malakasini rivojlantirish;
6. «So'z top!» o'yini tashkil qilib, unda barcha bolalarning ishtirokini ta'minlash;
7. Gapirganda o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish;
8. Til, so'z, gap haqida misollar, maqollar, topishmoqlar va tez aytishlar topish mashqlarini doimiy o'tkazish;
9. Lug'at ustida ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;
10. Ixtiyoriy diqqatlarini barqarorlashtirish;

Shunday qilinganda, ona tilimiz tom ma'noda faxrlanishga, g'ururlanishga arzigudek til ekanligini yoshlikdan bolalar ong va shuuriga singdirish oson bo'ladi.

Xullas, matn tahlili, yangi jumla qurish, matn yaratish, o'quvchi bilimni baholaydigan me'yor. Ona tili darslarining tarkibiy qismiga aylanmog'i lozim. Zero, til va til hodisalari uzliksiz harakatdagi yaxlit bir tizim yaxlit butunlikdir.

I bob yuzasidan qisqacha xulosa

Ona tili darslarida o'quvchilarga faqat grammatik qoidalarini yodlatish emas, balki, ko'proq ularning og'zaki va yozma nutqlarining ravon va erkin bo'lishiga erishish maqsadida kichik - kichik matnlar yaratishga harakat qilinadi.

Matn yaratish dastlab "Ona tili" darslarida keyinchalik esa ularga "O'qish" darslarida har xil mavzudagi matnlarni o'qish, yozma ravishda tayyorlash yo'llari bilan mukammallashtirilib boriladi:

Matn ustida ishlash boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishning eng ma'qul usullaridan biri hisoblanadi. Buning uchun ularning og'zaki va yozma nutqlarini baravar rivojlantirib borish kerak. Biror asar matn ustida ishlashda ham bu talablarni unutmaslik lozim. O'quvchilarda ijodiy fikrlash va ijodiy matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga oid tashkiliy-metodik ishlarni asosan o'tilgan darsni mustahkamlash jarayonida, shuningdek, uy vazifalari bajarishga yo'llanma berish davrida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

II BOB. MATN YARATISHGA O'RGATISH – IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISH OMILI SIFATIDA

2.1. Ona tili darslarining ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdagi roli

Ijtimoiy fanlarda «ijodiy fikr» tushunchasi fikrning o'z sub`ekti bilan bo'lgan munosabatini anglatadi. Fikr bir tomondan umumiylik xarakterga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan sub`ektivdir. U shaxsning ijtimoiy-ruhiy holati bilan bevosita bog`langan. Ushbu fikriy jarayonda shaxsning boshqaruvchilik faolligi muhim o`rin egallaydi. O`quvchi yoshlardagi ijodiy fikr, bir tomondan psixologik holat bilan bog`langan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning yoshi, mamlakatda qabul qilingan ta`lim-tarbiya usuli, qoidalari va tamoyillari bilan ham uzviy aloqada bo'ladi. Ijodiy fikr o`quvchining biror predmet, voqea, hodisa jarayon to`g`risida o`zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz bildirgan munosabati, bahosi, nuqtai nazaridir, o`zining «men»ini namoyish qilish vositasi, «qurolidir».

Ijodiy fikrlash o`quvchining muayyan predmet va jarayonlar to`g`risidagi bilimi, malakasi asosida ularni taqqoslash, tahlil qilish, sodda fikrlardan murakkab fikrlarga, murakkab fikrlardan sodda fikrlarga o`tish sharoitida, jamiyatda mavjud ijtimoiy-tarixiy holatni hisobga olgan holda, o`ziga xos mulohaza yuritish sanaladi. Ijodiy fikrlash aytilganidek, o`quvchining individual psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog`langan bo`lib, u o`zining hajmi, mazmuni, mantiqiylik darajasi hamda tezkorligiga ko`ra farqlanadi. Unda muayyan jihatni aniqlash, qiyoslash, tahlil qilish, ikkilanish, tassavur qilish, modellashtirish yaratish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu jarayonda jamiyatning o`quvchi shaxsning ijodiy salohiyatiga bo'lgan e`tibori muhim kasb etadi.

Ma`lumki, ong va ta`lim-tarbiya bir-biri bilan dialektik bog`liq ijtimoiy hodisalardir. Ta`lim-tarbiya tizimini, o`zgartirmasdan, yangilamasdan turib ongni o`zgartirib bo`lmaydi. Ayni vaqtda ong ta`lim-tarbiya yo`nalishini, uning

mohiyatini tizimini, mavjudlik darajasini belgilaydigan omil ekanligini aniq. Tafakkurning mavjudlik mexanizmi fikr va fikrlararo munosabatlar orqali amalga oshadi.

Har qanday fikrda ma`lum bir predmet yoki predmetlararo, jarayonlararo munosabatlarning haqiqatga yoki haqiqat emasligi tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. Fikr hamisha nutq yordamida voqelikka aylanadi. Fikrsiz nutq va nutqsiz fikr bo`lmaydi. Nutq ayni vaqtda shakl vazifasini o`taydi, uning mazmuni esa fikr tashkil qiladi. Ega va kesim o`rtasidagi munosabat gap mazmunining tugalligini bildirsa, gapda ega uni o`zidan oldingi fikr bilan bog`laydi, kesim esa yangi fikrning vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shu tarzda fikrlar bir tomondan o`zaro bog`lanadi, ikkinchi tomondan esa ular muntazam rivojlanib boradi. Fikrning ana shu tarzda rivojlanib borishi o`quvchining og`zaki nutqini shakllantirishga xizmat qiladi. O`quvchining ijodiy fikrlarini yozma bayon qilish malaka va ko`nikmalari ona tili darslarida bayon, insho, matn yaratish kabi ijodiy ishlar orqali amalga oshiriladi.

O`quvchining o`quv materialini o`zlashtirish jarayoni murakkab jarayon bo`lib, til hodisalarini kuzata olish, izlanish alohidalikni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, alohidaliklarni aniqlash, qo`llash singarilari bilan bog`liq. Bular ijodiy taffakur va mustaqil fikrlashning muhim belgilari bo`lib, ularning har biri o`ziga xos xususiyatlariga ega:

1. Kuzatish –darslik topshirig`i asosida ona tili hodisalaridan berilgan namunalarni kuzata olish;
2. Izlanish –o`ylash, xotirada tiklash, so`rash, lug`at, qomus, ma`lumot manbalardan foydalanish asosida hodisalar sirasini boyita olish;
3. Alohidalikni sharxlash –berilgan va o`zi davom ettirgan siradagi har bir hodisani alohida-alohida sharhlay olish;
4. Qiyoslash –siradagi hodisalarni o`zaro qiyoslay olish;
5. Umumiylikni aniqlash –siradagi hodisalarning o`xshash, umumiy tamonlarini aniqlay olish;

6. Farqlarni topish –siradagi hodisalarning bir-biridan farqli tomonlarini aniqlay olish;

7. Tasnif etish –siradagi hodisalarni o‘xshashlik va farqlari asosida guruh hamda guruhchalarga ajrata olish;

8. Hukm chiqarish –hodisalar sirasi haqida umumlashma hukm, xulosa chiqara olish;

9. Alohidaliklarni aniqlash–o‘rganilgan hodisalarning yondoshlari (ma`nodoshlari, shakldoshlari, vazifadoshlari, qiymatdoshlari, zidlari v.h) aniqlay olish;

10. Qo‘llash –hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og‘zaki shakllarda sharhlab, ijodiy matn tuza olish.

Ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning oliy ko‘rinishi matn yaratishdir. Shu sababli ona tili darslarida matn ustida ishlash etakchi yo‘nalish kashf etish lozim. Maktab “Ona tili” dasturi va darslarida “Ijodiy matn ustida ishlash” bo‘limining kiritilishi ham xuddi shu maqsadni ko‘zlaydi.

O‘quvchi va talabalarni ona tili darslarda mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ular ongida ma`naviy–ma`rifiy inqilob hosil qilishga intilish lozim. Shuning uchun yangi dastur va darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg‘ulotlarni o‘quvchi va talabalarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Ona tili ta’limi ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashga xizmat qilar ekan, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga qaratilgan ijodiy-amaliy ishlarga qo‘yiladigan talablarni hisobga olish, ularni uzluksiz amalga oshirish ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Ona tilidan ta’limning maqsad va vazifalari avvalo tilning jamiyatda bajaradigan vazifasi, inson hayotida tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Til jamiyat a`zolari shrtasida aloqa-aralashuv vositasi, insonning fikrlash va fikr mahsulini og‘zaki va yozma ravishda berishi, o‘z ichki kechinmalarini bayon qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabda ona tili ta`limiga qo`yilgan muhim talablardan biri o`quvchilarni o`z fikrlarini bayon qilish faoliyatiga tayyorlashdir. Ma`lumki kilishilar o`z faoliyatining barcha sohalarida bir–birlari bilan faol munosabatda bo`ladilar. Ular doimo o`zlarini o`rab olgan moddiy voqelikdagi narsa-buyumlar va voqea-hodisalar to`g`risida fikr yuritadilar va o`z fikrlarini bir-birlariga ma`lum qiladilar. Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar orasida fikr almashish bo`lmasa, jamiyatning halok bo`lishi muqarrardir. Fikr esa faqat til yordamida ro`yobga chiqadi.. Shuning uchun har bir kishi undan foydalanishni bilishi va avvalo uning o`zini to`la-to`kis o`rganib olishga harakat qilishi zarur.

Maktabda ona tili o`qitishni foydali maqsadlariga bo`ysindirish, har bir o`rganiladigan grammatik tushincha, ma`lumot, ta`rif va qoidalarning og`zaki va yozma nutqini rivojlantirishga yordamini nazarda tutishni, amaliy tilshunoslikka e`tiborni kuchaytirishni taqoza etadi. Amaliy tilshunoslik esa «til –me`yor -nutq»ning birligidan iborat.

Til fikrni shakllantirish va uni yuzaga chiqarish, birovga etkazish uchun qo`shimchalar, ularning o`zaro birika olish imkoniyatlari va birikish natijalari haqida qonun-qoidalar majmuassidir. Tilning asosiy qonun-qoidalarini, eng zarur birliklarni (nutq tovushlari, qo`shimchalar, so`zlarni), ularning birikish qonun-qoidalarini o`quvchi jamiyatdan tayyor holda qabul qiladi. Ularni o`rgatish uchun maktabda o`qish zarur emas. Lekin til ichki imkoniyat sifatida aniq bir fikrni xilma-xil usul va vositalar bilan yuzaga chiqarish imkoniyatini beradi. Tilning bunday imkoniyatlari behad xilma-xildir. Me`yor mana shu imkoniyatlarni g`alvirdan o`tkazuvchi omildir. Me`yor jamiyatda ma`lum bir maqsadni ko`zlagan holda til imkoniyatlaridan foydalanish uchun ko`rsatkichlar majmuasidir. Me`yorning oliy ko`rinishi milliy-adabiy til uslublari mezonlarida o`z aksini topadi.

Milliy adabiy til faqat ma`lkum bir uslubiy ko`rinishdagina yuzaga chiqadi.

Nutq til imkoniyatlarining me`yori g`alviridan o`tkazilgan holda yuzaga chiqishi, voqealanishdir. Oddiy bitta misolni olib ko`raylik. Bir bola kitob do`koniga bormoqchi. Lekin kitob do`konining qaerda ekanligini bilmaydi, bu maqsadni yuzaga chiqarish uchun bola behad ko`p imkoniyatlarga ega va nutq sharoiti talab qiladigan me`yorlarga asoslangan holda bu maqsadini ifodalashi lozim. Shu maqsadda u o`rtog`iga murojaat etganda: «O`rtog`on, falon kitobni olmoqchi edim. Kitob do`koni qaerda?»; notanish, tengqur yo`lovchiga murojaat qilganda: «Kitob do`konining qaerdaligini aytib berolmaysizmi?» kabi jumalardan foydalanishi mumkin.

Shu bola «kitob do`koni» tushunchasini ko`tarinki, badiiy uslubda ifodalamoqchi bo`lsa, «ilm xazinasini», «bilimlar koni» kabi iboralarni ishlatadi. Shunday qilib, me`yor bola ongida bo`lgan til imkoniyatlarining nutq moddiy shaklda voqealanishida oraliq bosqichdir.

Ona tili ta`limi oldiga qo`yilgan yana bir muhim talab o`quvchilar tafakkurini rivojlantirishdir. Insonning moddiy dunyoni bilishi tafakkur va til ororqali amalga oshadi. Ularning o`zaro munosabati juda murakkab jarayondir. Tafakkur tashqi olamning kishi miyasida aks etishining oliy ko`rinishi bo`lsa, til tafakkurni ma`lum shaklga solib, so`zlar, so`z birikmalari va gaplar bilan ifodalash vositasidir. Ular ehtiyoj va zaruriyat tufayli yuzaga keladi. Tafakkurni o`stirish ona tili mashg`ulotlarida maxsus aqliy faoliyat usullari–til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlariga ajratish, umumlashtirish, o`xshash vositalari ichida nutq sharoiti uchun eng qulayini to`g`ri tanlay olish ko`nikmalarini shakllantirishda voqe bo`ladi.

Ona tilini o`rganishni bu tafakkur usullarisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Modomiki shunday ekan, inson tafakkurini rivojlantirishdek muhim va mas`uliyatli vazifa, avvalo ona tili mashg`ulotlari orqali bajariladi. Til ta`limi oldida turgan yana bir murakkab talab o`quvchilarning til madaniyatini rivojlantirishdir. Til madaniyati juda katta va keng soha bo`lib. U o`quvchilarning kundalik oddiy salom–alikdan tortib kimga, nimani, qachon,

qaerda va qanday soʻzlashishgacha boʻlgan barcha nutqiy jarayonlarni oʻz ichiga oladi.

Ona tili mashgʻulotlari fikrni bayon qilishda nutqning badiiy qimmatini oshiradigan vositalar: maqol va matallardan, ulkan shoir va yozuvchilarimizning maqol va aforizmga aylangan iboralari va jumllaridan, badiiy asarlaridan olingan koʻchirmalar va yorqin obrazlardan, oʻzbek xalqining qochirma soʻzlari va frazeologik iboralaridan, oʻxshatish, sifatlash, jonlantirish, istioro, mubolagʻa kabi badiiy til vositalaridan, ritorik soʻroqli gaplardan foydalanishga oʻrgatmogʻi lozim.

Oʻquvchilar nutqining ifodaligi va taʼsirchanligiga erishish ham til taʼlimi oldiga qoʻyilgan muhim talablardan biridir. Soʻz urgʻusi, matiqiy urgʻu, turli uzunlikdagi pauza (toʻxtam), ovoz tembri, nutq surʼati, tovush, boʻgʻin, soʻz va gaplarni burro-burro aytish, gaplarni mazmuniga qarab darak, soʻroq, buyriq, undov ohangi bilan ayta olish kabi malaka va koʻnikmalar ham ona tili mashgʻulotlari orqali shakllantiriladi.

Til taʼlimi oʻquvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish vositasi hamdir. Shaxsning bilim olishi, tarbiyasi va rivojlanishi bir butun jarayon boʻlib, biriikkinchisidan ajratilmagan holda amalga oshiriladi.

Ona tilning barcha boʻlimlari bu muhim maqsadni amalga oshirishda keng imkoniyatlarga ega. Masalan oʻzbek tili fonetikasini oʻrgatishda tovush tizimining xususiyatlarini koʻrsatish orqali oʻquvchilarning badiiy talaffuz meʼyorlarini oʻzlashtirishlariga yordam beramiz va bu orqali tarbiyani amalga oshiramiz. Soʻzdagi maʼlum bir tovushni oʻzgartirish orqali qofiyadosh soʻzlar hosil qilish, misralar oxiridagi tovushdoshlik, ohangdoshlik ustida ishlash orqali oʻquvchilarda sheʼriyatga kuchli qiziqish vujudga keladi. Oʻquvchilar «Leksikologiya»dan soʻzning oʻz va koʻchma maʼnosi bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar maʼnodosh va uyadosh soʻzlar ustida ishlar ekanlar, ularda oʻz ona tiliga muhabbat, u bilan faxrlanish hissi paydo boʻladi.

Ona tilidan tanlanadigan matnlar, bajariladigan oʻquv topshiriqlari, foydalaniladigan rasmlar, diafilʼmlar, badiiy asar namunalari muhim tarbiyaviy

vosita bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning rivojlanishi ta'lim va tarbiya bilan uyg'unlikda amalga oshadi. Kuzatish, taqqoslash, til hodisalarini guruhlarga ajratish, umumiyLashtirish kabi aqliy faoliyat usullari o'quvchilarda diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol kabi shaxsiy ruhiy xususiyatlarni shakllantirish bilan birga ularda qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, uni mustaqil ravishda bartarav etish kabi xususiyatlarni shakllantiradi.

Uzoq izlanishlardan so'ng o'zbek tilshunoslari va tadrishchilari ona tilidan ta'lim maqsadini quyidagicha belgiladilar: ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Ona tili darslarida o'quvchilar bilimini tekshirish, baholash, shuningdek mashg'ulotlar davomida hosil qilingan kuzatuvchanlik, narsa va hodisalar, voqea va holatlarni o'zaro bog'lay olish ular yuzasidan muayyan xulosaga kelishdek ijodiy fikrlashga yo'naltiruvchi ko'nikmalarni takomillashtirish maqsadida o'tkazilgan bayon hamda ta'limiy, ijodiy insholar, maxsus topshiriqli diktantlar to'g'risida fikr yuritiladi. Shuningdek, tadqiqotda o'quvchilarda ijodiy matnlarni yaratish malakalarini hosil qilish maktablarning boshlang'ich sinflarda amalga oshirish va yaratilgan matnlar mavzularini 5-sinfda bir oz murakkablashtirib berish haqida to'xtab o'tiladi.

Maktabda ona tilini o'rganish uchun berilgan vaqtning ko'p qismi bolalarga mustaqil va ijodiy fikrlash, ijodiy mahsulni nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga ajratiladi.

Ona tili mashg'ulotlarda rasmlardan foydalanishga muayyan talablar ham qo'yiladi. Bular rasmning yuksak badiiyligi, o'rganilayotgan mavzu talabiga mosligi, sinf o'quvchilarining yozish va bilim saviyasiga muvofiqligi, rasmda rassom maqsadining ifodalanganligi, nutq o'stirishga muvofiqlik darajasi kabilar bo'lib sanaladi.

Matn ma`lum bir mavzu yoki rasm asosida yaratiladi. Kuzatishlarimiz shuni ko`rsatdiki, aksariyat hollarda o`quvchi rasm asosida matn yaratar ekan, ko`z o`ngida lavha qanday namayon bo`lsa, uni shundayligicha qabul qiladi va tasvirlaydi. Aytish mumkinki, rasmda tasvirlangan holat tuzilayotgan matnni ma`lum darajada chegaralaydi. Rasm asosidamatn tuzishda o`quvchining ijodiy fikrlash ko`nikmalarini yanada rivojlantirish maqsadida ijodiy ish jarayonini uch bosqichga bo`lish maqul:

1 –bosqich: rasmda tasvirlangan holatga qadar bo`lib o`tgan voqea-hodisalar haqida bildirilgan mantiqiy fikr va mulohazalar;

2 –bosqich: rasmdagi holat tavsifi va unga munosabat;

3 –bosqich: rasmdagi holatning mantiqiy davomi haqida o`quvchining ijodiy fikrlari.

Birinchi bosqichda matn yaratishdan avval surat asosida suhbat o`tkaziladi va lug`at yaratiladi. Ikkinchi bosqichda so`z zahirasini boyitish va savodxonlikni oshirish maqsadida lug`atdagi so`zlar ishtirokida lug`at diktanti o`tkaziladi. Bu esa o`quvchining fikr doirasini, dunyoqarashini kengaytiradi. Rasm asosida ijodiy matn yaratishda tayyorgarlik jarayoni 2-3 dars davomida 9-10 daqiqani tashkil etishi kerak. Uchinchi bosqichda lug`atdagi o`zgarishi mumkin bo`lgan so`zlarni iboralar, ulrning ma`nodoshlari bilan almashtirish, uyadoshlar qatorini yaratish yuzasidan ijodiy ishlar o`tkazish tavsiya etiladi.

Ijodiy yozma ishlarning samarasi ko`p jihatdan tanlangan rasmning mavzusi, sifati va xarakteriga bog`liqdir. O`quvchi voqea-hodisalarning ketma-ketligiga e`tibor beradi, ular o`rtasidagi uzviylikni qidiradi. Demak, ijodiy ishni tashkil qilish orqali o`quvchining fikrlashiga, mushohada yuritishiga erkinlik beriladi. Uning ijodiy fikrlash ko`nikmalari rivojlantiriladi.

O`quvchilarning erkin mavzu bo`yicha matn yaratishga maxsus tayyorlanilishi maqsadga muvofiqligi, bu jarayonda ularning ijodiy fikrlariga keng imkoniyatlar yaratilishi haqida fikrlar bayon etiladi. Berilgan ma`lum bir mavzu asosida matn tuzishga o`rgatish o`quvchining ijodiy erkinligini ma`lum darajada cheklaydi. Biroq bu cheklanish nisbiy bo`lib, faqat tahlil doirasidagina

chegaralanadi. O'quvchining mavzuga ijodiy yondashishi esa oydinlashadi va shu mavzu doirasidagi ijodiy fikrlashga keng imkoniyat yaratiladi. Fikr izchilligini saqlagan holda hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni mantiqan to'g'ri ifodalashga keng yo'l ochib beradi.

Rasmi tarqatma materiallar ham darsning muhim vositalaridan biridir. Bu vosita darsni o'quvchilarning bilim saviyasiga qarab tabaqalantirishda, har bir o'quvchining o'quv imkoniyatidan kelib chiqib topshiriq berishda, bolaning mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatishni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Rasmlar tarqatma materialdan o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, berilgan so'zga ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar tanlashda, muhim o'rin egallaydi.

Ta'limning samarali vositalaridan yana biri diafil'm va diapozitivlardir. Bu vositalardan til hodisalarining mohiyatini sharhlashda ham, nutqiy malakalarini takomillashtirishda ham foydalansa bo'ladi. Ayniqsa, mavzu talabiga muvofiq so'z va so'z birikmalari tanlashda gaplar tuzishda, matn yaratishda bu muhim vositalar qo'l keladi.

Xullas, yuqorida tilga olingan vositalar darslik materialini to'ldirish hamda boyitish bilan bir qatorda mashg'ulotlarning qiziqarli va zavqli o'tishini ta'minlashda ham alohida o'rin egallaydi.

2.2. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish usullari

O'quvchilarni matn tahlili va matn yaratishga o'rgatish boshlang'ich sinflardan oq boshlanadi. Boshlang'ich ta'lim ona tili dasturida 2-sinfda o'quvchilarga "Matn, matnning o'zaro mazmunan bog'langan ikki yoki bir necha gaplardan tuzilishi, matnlarni mazmunan qismlarga bo'lish, matnga va matn qismlariga sarlavha qo'ya olish, bayon haqida tushuncha, savollar yordamida uncha katta bo'lmagan matn asosida bayon yozish, rasmlarga qarab savollar yordamida gaplar tuzish, bir mavzuga oid 2-3 ta gap tuza olish (o'qituvchi rahbarligida), bolalarning o'yinlari, kattalar mehnatiga yordami, o'qishlari, qiziqishlari haqida o'qituvchi rahbarligida hikoya tuzishga o'rgatish nazarda tutilgan. 3-sinfda esa "Matn va mavzu, matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo'lish, matn qismlariga sarlavha tanlash, matn qismlarini va har bir qismdagi gaplarning o'zaro bog'liqligi, matnning tuzilishi: kirish qismi, asosiy fikr, oxirgi xulosa qismi va ularni belgilash kabi matn yaratishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalar haqida o'quvchilarga ma'lumot berish maqsad qilingan. Xabar (hikoya) xarakteridagi matnni berilgan yoki o'quvchi o'zi tuzgan reja asosida qayta bayon qilish, bir mavzudagi bir necha rasm, mazmunli rasm asosida, shuningdek, o'quvchilarning hayotiga yaqin bo'lgan voqelik (o'yinlar, tabiatni kuzatish, sayohatlar) birgalikda oldindan tayyorgarlik bilan og'zaki yoki yozma nutq tuzish, bayon va inshoga asta-sekin tayyorlash va munozaraning bayoni sifatida 2-3 gapni qo'shib borish, malakasini shakllantirish, o'z ishlari haqida qisqa xat yozishga o'rgatish ishlarini olib borish dasturda alohida qayd qilingan.

4-sinfning Ona tili darslarida matn ustida ishlashga o'rgatish uchun alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar asarda voqealarning bir-biri bilan uzviy bog'liq holda asta-sekin rivojlanib borishini, matn qismlarining mazmunan bog'liqligini mustaqil belgilay olish, asar tahlilida matndan misollar tanlay

olish, asar qahramonlarining xatti-harakatlarini baholash, ularga o'z munosabatini bildirish, murakkab bo'lmagan asardan asosiy fikr (g'oya)ni ajrata olish, o'qishga bog'liq holda nutq ko'nikmalarining shakllanishini ta'minlash, badiiy matndagi so'z ma'nolarini farqlash, tanlab o'qish, matndan asar qahramonlari, tabiat manzarasini ifodalash uchun zarur bo'lgan so'z va iboralarni topa olish, nasriy asar mazmunini to'liq, qisqartirib, shaxsini o'zgartirib hikoya qilish, ijodiy hikoyalar tuzish va ularga mos sarlavha topib qo'yish, o'qigan asarlari muallifi va nomlarini ayta olish, badiiy asarlarni bir-biri bilan taqqoslash, muayyan xulosalar chiqarish, darslikdagi savol va topshiriqlar ustida mustaqil ishlash, mundarijadan foydalanish, rasmlar asosida og'zaki va yozma hikoyalar tuzish bo'yicha malakalarga ega bo'lishlariga erishish lozimligi ko'rsatib berilgan. 4-sinf ona tili dasturida "Nutq. Matn" mavzusi uchun 5 soat ajratilgan bo'lib, matnning tuzilishi, bir kishining nutqi, ikki va undan ortiq kishining nutqi, matnni gapdan farqlash, matndagi asosiy fikrni aniqlash, matn tuzish, uni ifodali o'qishni mashq qilish, qayta hikoyalash, sarlavha haqida nazariy ma'lumotlar berilishi ko'zda tutilgan.

Masalan, 82-mashqning topshirig'i shunday berilgan. Rasmni kuzating. Rasm asosida uch-to'rt gapli hikoya tuzing. Hikoyangizga sarlavha qo'ying.

83- mashq. She'riy matnni o'qing. U nima haqida?

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada,

Bu nihol nomini „Yaxshilik" ata.

Niholning yoniga bir gul ekib qo'y,

Bu gulning nomini „Go'zallik" deb qo'y

Gul-u niholingga baxsh etib hayot,

Suv ber va bu suvga „Mehr" deb ot qo'y.

Erkin Vohidov

Siz kelgusida Vatanningiz ravnaqiga qanday hissa qo'shmoqchisiz? Fikringizni uch-to'rt gap bilan ifoda qiling va yozing.

86-mashq. O‘qing. Chiziqning ikki tomonida berilgan fikrlarni taqqoslang. Ulardan qaysi biri matn? Nima uchun uni matn deb hisoblaysiz?

1. Isiriq Sharq va Osiyoda ishonchli dori-darmon bo‘lib kelgan. (M. Nabiyev) 2. Savolni o‘z vaqtida, o‘rnida berishni o‘rganing. 3. Ko‘m-ko‘k bo‘lib turgan yaproqlar kuzda nega sarg‘ayib qoladi? („Gulxan”dan)

Samarqanddagi Registon ansambli uchta salobatli binodan tashkil topgan. Bular: Ulug‘bek, Sherdor, Tillakori madrasalaridir.

Ulug‘bek madrasasi 1471- yili barpo etilgan. Madrasada diniy ilmdan tashqari, turli dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan. Bu yer Ulug‘bek davrida ilm-fanning markazi bo‘lgan. Madrasada Ulug‘bekning o‘zi ham dars bergan. („Gulxan”dan)

Matn nutqning qanday shakli?

Qoida:

Matn nutqning yozma shaklidir. Matn mazmunan o‘zaro bog‘langan gaplardan tuziladi. Matnni qismlarga bo‘lish, unga sarlavha qo‘yish, reja tuzish mumkin.

88- mashq. O‘qing. Gaplarni o‘z o‘rniga qo‘yib, matn tuzing va sarlavha qo‘yib yozing.

Yoz fasli bo‘lganligidan har yerda suvlar quribdi. Bechora Qarg‘a suv yo‘qligidan nihoyatda qiynalibdi. Tillari osilib, har tarafdan suv axtaribdi. Nogoh ko‘zani ko‘rib qolibdi. Yoniga kelib boqsa, ichida suvi bor. Oz vaqt ichida ko‘zaning ostidagi suv ustiga chiqib, tosha boshladi. Aqlli Qarg‘a suvdan ichib, uchib ketdi. Lekin bo‘ynini suqib, ichay desa, bo‘yi yetmaydi. Biroz o‘yladi-da, tumshug‘i bilan toshlarni yig‘ib, ko‘zachaning ichiga tashlay boshladi...

(Abdulla Avloniydan)

Yozganingizni tekshiring.

Matnda gaplar qanday joylashadi?

89-mashq. O‘qing. Ertak mazmuniga mos bo‘lmagan gaplarni aniqlang. Ularni tushirib qoldirib, qayta o‘qing va yozing. Ertakka „Usta Teshaboy“, „Teshaboy va uning uch o‘g‘li“ sarlavhalaridan mosini qo‘ying.

Qadim zamonda Teshaboy degan usta o‘tgan ekan. Usta yog‘ochlardan chiroyli buyumlar yasabdi.

Teshaboyning uch o‘g‘li voyaga yetibdi. Bir kuni u o‘g‘illariga biror buyum yasashga yaramaydigan yog‘och keltirishlarini buyuribdi. Biz kitob o‘qish uchun kutub-xonaga bordik.

Katta o‘g‘li bug‘uning tumshug‘iga o‘xshash qurigan shox keltiribdi. Teshaboy undan omoch yasabdi.

O‘rtancha o‘g‘li yo‘g‘onligi bilakdek keladigan yog‘och keltiribdi. Teshaboy undan otiga bo‘yinturuq yasabdi. Futbol o‘yini qiziqarli o‘tdi.

Kenja o‘g‘li butun terakzorni kezib, keraksiz yog‘och topolmabdi. Uyga quruq qaytibdi. Shunda Teshaboy kenja o‘g‘lidan haqiqiy usta chiqishini aytibdi.

(„O‘zbek xalq ertagi“dan)

90-mashq. Rasmni kuzating. She‘rni ifodali o‘qing.

KUZ

G‘ir-g‘ir shamol yeladi,	Maktab borar qiz-o‘g‘il,
Buni hamma biladi.	Qo‘lda kitob hamda gul.
O‘giradi yelga yuz:	Oltin oqar daladan,
- Marhamat! Kel, oltin kuz!	Tong yorishgan palladan.

Quyosh tushar taftidan,	Barg to‘kadi daraxtlar.
Qo‘rqib qishning aftidan.	Hosil yig‘ib olinar,
Sarg‘ayadi ko‘katlar,	Qishga zamin solinar.

Shukur Sa’dulla

O‘zingiz yashab turgan shahar, qishlog‘ingizdagi kuz ko‘rinishini tasvirlab, „Kuzda“ sarlavhali insho yozing.

Mavzuni yoritishda „Kuz" she'ridan, rasmdan, kuzatishlaringiz asosida to'plagan materiallaringizdan foydalaning. Reja asosida fikringizni bayon qiling.

Reja

1. Kuzda ob-havo.
2. Kuzda tabiat ko'rinishi.
3. Kuzgi ishlar.

Bilimingizni tekshiring!

- Nutq nima? Nutqning qanday shakllari bor? Nutqning yozma shakli nima deb nomlanadi?
- Matn qanday gaplardan tuziladi?
- Matnni nimalarga bo'lish mumkin?
- Matnga nima qo'yiladi?

So'zlarni ongli o'qish gaplarni ongli o'qishni ta'minlaydi. O'qishda bolalar gapdagi hamma so'zlarning ma'nosini tushunmasligi mumkin. Alifbo davrida o'quvchilarda yetarli o'qish ko'nikmasi bo'lmagani uchun, ularning diqqati faqat bir so'z ma'nosiga yoki kichik hajmli gap ma'nosiga tortiladi, matn mazmunini tushunishga hali qiynaladilar. Bunga erishish uchun o'qituvchi har bir o'qish mashg'ulotida bolalar o'qigan so'z, gap, matn mazmunini tushunishda ifodali o'qish katta rol o'ynaydi. Odatda, bolalarning o'qish ohangi so'zlashuv ohangidan farq qilmaydi. O'qishda jonlilik sezilmaydi: sun'iy ohang bilan o'qiydilar. Bu hol so'zsiz ifodalilikni buzadi. Bolalarni ifodali o'qishga o'rgatish juda murakkab ishdir. Buning uchun o'quvchilar matnni bir marta o'qib chiqadilar. Keyin o'qituvchi matnning xarakteriga qarab o'zi ifodali o'qib beradi, har bir gapni qanday ohang bilan bog'lash, gap tugaganda nuqta oldidan ovozni pasaytirish kerakligini tushuntiradi. O'quvchilarning ifodali matn mazmunining to'g'ri va to'liq tushunilishiga imkon beradi. Mazmunini to'liq tushunish uchun tanlab o'qishning ham ahamiyati kattadir. Tanlab o'qish avval ayrim so'zlarni to'g'ri

o'qishni o'rgatadi. So'ng ayrim gap, so'zlarni matn tarkibidan izlab topish, ma'lum so'zni boshqa so'zlardan ajrata olish uquvini hosil qiladi. Bu esa bolalrdagi o'qish ko'nikmasini takomillashtiradi. Eng muhimi matnda fikr nima haqida borayotganligini aniqlab olish, matn mazmunini to'liq tushunib yetish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan matn ustida ishlash yozish va o'qish ko'nikmalarini egallab olganlaridan keyin boshlanadi. Ko'proq boshlang'ich sinfda dastlabgap, kichik matnlar, badiiy, ilmiy matnlar ustida ish olib boriladi. Masalan, badiiy matn ustida ishlashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Dastlab kichik matnlar, keyinchalik esa kattaroq matnlar yuzasidan amaliy topshiriqlar bajariladi.

Hatto, 3-4-sinflarda badiiy asarlardan olingan parchalar yuzasidan ham vazifalar bajariladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlar o'qishga tayyorlashi ham mumkin. Buning uchun dastlab tayyorgarlik ishlari bajariladi. Keyinchalik badiiy matnga oid oquvchilarning tasavvurini boyitadigan ekskursiyalar tashkil qilinadi.

O'quvchilarda gap haqida tushuncha savod o'rgatishning tayyorgarlikdavrida hosil qilingan. Ular amaliy ravishda gapning bosh harf bilan boshlanishi, oxiriga nuqta, so'roq, undov belgisini qo'yilishini o'zlashtiradilar. Bu bo'limlar 2-sinfda elementar nazriya ma'lumotlar bilan chuqurlashtiriladi. 3-sinfda esa o'quvchilar his hayajon gaplarni anilaydilar, ular bilan yaqinda tanishadilar. 4-sinfda olldingi sinfda egallgan bilimlari savol-javob yo'li bilan eslatiladi va o'zlariga gapirtiriladi. O'quvchilar ko'proq mustaqil faoliyat ko'rsatadilar.

1-dars.

Mavzu.O'quv yili boshidagi takrorlash. Gap

Darsning maqsadi:

1. Oldingi sinfda o‘tilgan gaplarning so‘zlardan tuzilishi, bosh harf bilan boshlanishi va oxiriga (!) Belgilarining qo‘yilishi ,tugallangan ohang bilan aytilishi kabilarni eslatish. O‘quvchilarni o‘z fikrini to‘g‘ri tuzilgan gaplar bilan ifodalashga o‘rgatish, lug‘atini yangi so‘zlar bilan boyitish, imloviy savodxonlik ustida ishlash orqali ba‘zi so‘zlarning yozilishini mustahkamlash.

2. O‘quvchilarni vatanparvarlik va ekologik ruhda tarbiyalash.

Dars tipi. O‘tilganlarni mustahkamlash.

Bolalar gap ma‘nosini tushunib oldimi yoki gapdagi har bir so‘zning ma‘nosini tushundimi: Buni ham o‘qituvchi bilishi kerak. Birinchi sinfda bolalarning javobi to‘liq bo‘lishi bir so‘z bilan "ha", "yo‘q" deb javob berishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Matnning mamunini tushunish uchun matn tarkibidagi barcha gaplar mazmunini tushunish uchun matn tarkibidagi barcha gaplar mazmunini tushunishi, ularni bir biriga bog‘lay olishi talab qilinadi. Bu esa bola uchun murakkab bo‘lganligi uchun o‘qituvchining savoli ularning tushunishiga yo‘llanma, vosita vazifasini o‘taydi. O‘qituvchining bunday yordami o‘quv davrining xarakteriga qarab turlicha bo‘ladi. Masaln: agar alifbo davrining dastlabki bosqichlaridan boshlab bolalarga bunday savollarga javob berish o‘rgatib borilsa, keyinchalik ularga umumiyroq savolar bilan murojaat qilish mumkin.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki: bolalrning o‘qish tezligi ,o‘qishdagi ifodalilik bir xil rivojlanmaydi. Ayrim o‘quvchilar o‘qish maakasini osonlikcha ,tez egallasalar, boshqalari sekin, shoshilmay bo‘g‘inlab o‘qiydilar. Buning sabablari o‘z-o‘zidan ma‘lum o‘quvchilarda o‘zlashtiruvchanlik, o‘z diqqatini markazlashtirish, ummiy tayyorgarlik darajalari hech qachon bir xilda bo‘lmaydi.

Alifbo davrining uchinchi bosqichida matn.

Darsning uslubi. Suhbat.

Darsning jihozi: Vatan tabiati tasvirlangan, o‘simlik va daraxt rasmlari, tarqatma materiallar, test kartochkalari

Darsning borishi:

1. Dars O'zbekiston Respublikasining madhiyasi bilan boshlanadi.
2. O'zbek tili darsligi va uning mualliflari haqida tushuntiriladi.
3. Mustaqillik va bilimlar kuni yuzasidan suhbat o'tkaziladi.

1-sentabr qanday kun? (O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kun)

Mustaqillik deganda nimani tushunasiz? (Mustaqillik har bir xalqning erki o'z qo'lida ekanini bildiradi). 2-sentabr qanday kun? (2-sentabr Bilimlar kuni. Chunki O'zbekistonda har yili 2-sentabrdan o'qishlar boshlanadi.)

"Bayrog'im" va "Maktubim" she'ri o'qitiladi. She'r yuzasidan qisqa suhbat o'tkaziladi.

4. Dars mavzusi xat taxtaga yoziladi: Gap.

Gap haqidagi mavzularni o'rganish jarayonida o'quvchilarga kishilar gap yordamida aloqaga kirishadilar, bir-birlariga fikrlarini gap orqali aytadilar, shuning uchun gapni to'g'ri to'ri tuzishni, unda nimalarga e'tibor berish kerakligini bilib olishingiz lozim, deb ta'kidlab turiladi. Xattaxtaga: "1991 yildan boshlab birinchi sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni sifatida bayram qilinadi" degan jumla yoziladi va o'quvchilarga o'qitiladi. Mazkur gap yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Gap nimalardan tuzilgan? Unda nechta so'z bor? Gapning birinchi so'zi qanday qaanday harf bilan boshlangan? Gapning oxiriga qanday tinish belgi qo'yilgan? Gapda so'zlar qanday bog'langan? Gapni qayta o'qing. Uni qanday ohang bilan aytdingiz? Gap qanday mazmun bildiriyapti?

O'quvchilar javobi umumlashtiriladi:

1-mashq og'zaki bajariladi. Mashqning sharti bo'yicha matnda 10 ta belgi borligi, ayrim gaplardagi so'zlar soni aniqlatiladi. "O'quvchilar maktabning katta zaliga yig'ildilar" gapi yordamida so'zlarning bog'lanishi tahlil qilinadi. Maktab so'zi zal so'ziga, o'quvchilar so'zi yig'ildilar so'ziga nimalar yordamida bog'langani bog'langani (-ning, -i, -ga, bosh kelishik) so'raladi. Maktabning so'zi o'rniga hovliga so'zini qo'yib gapni o'qisak

bo'ladimi so'rog'i orqali gapda so'zlar grammatik qo'shimchalar yordamida va mazmun jihatidan bog'lanishi takrorlanadi.

Mashqning ikkinchi sharti bo'yicha 3-gap bolalar haqida, u haqda boshlaydilar deyilgan, 5-gap qo'ng'iroq haqida, u haqda chalindi, 7-gap o'quvchilar haqida ekani, u haqida kirib kelishdi deyilgani va ular gapning bosh bo'laklari, ega, kesim deb nomlangani suhbat yo'li bilan aniqlanadi.

2-mashq shartiga ko'ra bajariladi. Bunda o'quvchilarning har bir gapni tugallangan ohang bilan o'qishlariga e'tibor beriladi. Mashq yuzasidan quyidagi suhbat o'tkaziladi: "1-gap nechta so'zdan tuzilgan? 2-gapchi? (7 so'zdan) ...Demak gapda eng kamida nechta so'z bo'lishi mumkin? Bitta so'zdan iborat gapni -qanday ohang bilan aytilishi zarur? (Men uni tugallangan ohang bilan aytdim. Bitta so'z gap bo'lishi uhun albatta tugallangan ohang bilan aytilishi lozim). Yoz gapidan so'ng nima qo'yiladi? Bu gap ham mazmun bildiriyaptimi? (Gap oxiriga nuqta qo'yiladi. Hozir yoz fasli ekanligi mazmunini bildiriyapti.). Har bir gap bittadan o'quvchiga shu tahlitda tahlil qildiriladi. Bu o'quvchini o'z fikrini ifodalashga o'rgatish mashqi sanaladi.

3-4 mashqlar og'zaki bajariladi. Gaplarda ishlanayotgan mazmun so'raladi. 3-mashqda 1-gapning mazmuni so'ralganda o'quvchilar: "Yakkabog' qishlog'iga boradigan yo'l haqida fikr boryapti..." deb javob beradilar.

5. Mustaqil ish. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi:

1-guruh: Dorivor o'simliklar nomini yozadi (otquloq, jag'-jag', aloi, mingdevona, bangiddevona, o'rmon qichitqqi o't, zubtutum, bo'znoch, gulxayri, qora smoradina, moychechak, na'matak, qalampiryalpiz, momoqaymoq, angishvonagul, tugjambil, malina);

2-guruh: Daraxt nomlarini yozadi (chinor, terak, qora qayin, qarag'ay, oq qayin, qayrag'och, tol, qalrang'i, zarang, chetan, shumurt, saksovul);

Bu topshiriq yozma yoki og'zaki shaklda bajariladi. Ko'p so'z topgan qator g'olib bo'ladi. Bunda o'quvchilar topgan so'zlar bir-birinikini to'ldiradi deb aytiladi. Shu so'zlardan qatnashtirib gap tuzadilar xat taxta tagligiga yoki

harf tuzish kartonga dorivor o'simliklar va daraxt rasmlari terib qo'yilishi, o'quvchilar ulardan foydalanib nomlarini aytishi mumkin.

6. So'z ma'nosi ustida ishlash So'lim, so'qmoq, qo'riqxon, ramz toqi, g'urur burch, qadr ko'tarinki ruh kabi so'z birikma ma'nosi so'raladi. So'lim-1 (yoqimli, go'zal 22) beg'ubor, sof.

So'qmoq – yolg'iz oyoq yo'l

Qo'riqxon noyob hayvonlar, o'simliklar, daraxtlarni saqlash va ko'paytirish uchun ajratilgan, davlat tomonidan himoya qilinadigan joy.

G'urur – insonning o'z qadr-qimmatini bilish, hurmat qilish hissi, izzat-nafs.

Qadr – kishilar o'rtasida tutgan o'rni, obro' e'tibor.

Burch – majburiyat, ado etilishi shart, majburiy bo'lgan vazifa

Ramz – biror g'oya, tushunchani ifodalovchi shartli belgi, ramz.

Ko'tarinki ruh – zo'r xursandchilik va faxrlanish hissi bilan jonlanish

Toqi – vassa (uyning shipiga qo'yiladi), shu tarzda har bir darsda muntazam ishlab berilsa, o'quvchilarda mashq ishlash jarayonida o'zlariga ma'nosiz tushunarsiz so'zni darrov bilib olishga intilish paydo bo'ladi. Berilgan o'quvchilar esa izohlab berish orqali fikrlarini to'g'ri ifodalashga o'rganadilar. Bu so'zlarga ma'nodosh so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar ham toptirilishi, ko'p ma'noli bo'lsa ma'nolari so'ralishi mumkin

7. Lug'at diktant: So'lim, so'qmoq, qo'riqxon, ramz, toqi g'urur, burch qadr, yakkabog', Qizildaryo. Lug'at diktant uchun ko'pincha bajarilgan mashq matnidagi o'quvchilar xato qilishi mumkin bo'lgan so'zlar to'planadi. Keyin darsning boshida yoki oxirida lug'at diktant o'tkaziladi. Bu ham izchil uyushtirilib borilsa, o'quvchilarda so'zlar imlosini kuzatish sezgirligi paydo bo'la boradi.

8. Mashq matnlarida ilgari surilgan g'oya tahlili.

Bu o'qituvchi shu darsda o'qilgan "Bayrog'im", "Maktabim" she'rlari va mashq matnlarida asosan vatanni sevish, uning go'zalligidan zavqlana olish, vatan boyliklarini asrashda o'z issalarini qo'shishlari kerakligiga o'quvchilar

diqqatini tortadi. O'quvchilarga mashq matnlarini o'qiganingizda sizda qanday his tuyg'u paydo bo'ladi? Degan savol bilan murojaat qilsa, ham o'qituvchi nutqi sayqallashadi ham o'quvchi o'zining qanday shaxs sifatida shakllanishi kerakligini bir oz o'lsada o'ylaydi.

9. Test.

Test kartonga yozib kelinadi va ilib qo'yiladi. O'quvchilar daftar hoshiyasiga testning tartib raqami va javobini yozadilar (1s, 2s, ...)

Testdan namunalar:

1. Gap berilgan qatorni aniqlang

- a. Bu bino
- b. Uyga kelsam
- c. Bu maktab binosi

2. Gap to'g'ri tuzilgan qatorni aniqlang.

- a. Oltin kuz fasli keldi.
- b. Oltin fasl kuz keldi
- c. Kuz – oltin fasl

3. Gapda so'zlar to'g'ri bog'langan qatorni aniqlang.

- a. O'quvchilar maktabning katta zaliga yig'ildilar.
- b. Shu yerdan Yakkabog' xo'jaligining yerlari boshlanadi
- c. Mustaqillik bayrami uzoq davom etdi

10. Darsda takrorlanganlarni umumlashtirish va o'quvchilarni rag'batlantirish.

Bolalar bu darsda nimalarni esladik

1-o'quvchi: Gapning bosh harfi bilan boshlanishini, oxiriga tinish belgilarining qo'yilishi

2-o'quvchi: Gapning so'zlardan tuzilishini

3-o'quvchi : Gap biror mazmun bildirishini

4-o'quvchi: Gapda so'zlar mazmun jihatdan va qo'shimchalar yordamida bog'lanishini

5-o'quvchi: Gapning bitta so'zdan tuzilishi va mumkinligi

6- o'qituvchi: Gaplar tugallang ohang bilan o'qilishini

O'quvchilar javobi umumlashtiriladi

11. Uyga vazifa. 5-mashq. Mashqning bajarilishi tushuntiriladi va namuna ko'rsatiladi: Oltin kuz fasli keldi.

Dars tashkiliy tomondan turlicha bo'lishi mumkin, lekin unda til materiallari ustida amaliy ishlash, ularni o'quvchilar nutqiga kiritish, o'z so'zlariga aylantirish muhim sanaladi. Bola o'z so'ziga aylangan til hodisasini nutqida to'g'ri qo'llay bilsin. Shundagina biz ona tillini to'g'ri o'rgatgan bo'lamiz.

Maktablarda o'quvchilarning nutqini, jumladan yozma nutqini o'stirishga alohida ahamiyat beriladi. O'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda yozma ishning bir necha turlaridan foydalaniladi. Shulardan biri bayondir

Bayon o'qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozma qayta hikoyalashdir.

Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan bayonlar ko'proq ta'limiy xarakterga ega bo'lib, ular og'zaki va yozma holda o'tkaziladi. Bunday bayonlarni muntazam o'tkazib turish, o'quvchilarni so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga, matnni ongli, ifodali o'qish va so'zlab berishga hamda ularning fikrlash doiralarini kengaytirishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida to'g'ri yozish malakalarini rivojlantirishga, adabiy til meyorlarini mukammal o'zlashtirish hamda nutq madaniyatini egallashlariga, nihoyat, kontrol yozma ishlarni talabga muvofiq tarzda yozishlariga imkoniyat tug'diradi.

Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan bayon turlari xilma-xil bo'lib, shulardan biri grammatik topshiriqli bayon haqida to'xtalmoqchimiz.

Bayon ustida ishlashda grammatik topshiriqli bayon yozishga o'rgatish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bayonning bu turi to'rtinchi sinfda o'tkaziladi .

Bayonni yozdirishdan avval o'quvchilar bilan izohli o'qish darslarida o'qigan ayrim hikoyalardagi shaxsni o'zgartirib, qayta hikoyalash yuzasidan

mashqlar o'tkazilgan bo'lishi kerak. O'quvchilar shaxsni o'zgartirib hikoyalash haqida ko'nikma hosil qilganlaridan so'ng, bayon yozish maqsadga muvofiqdir.

Bayonning bu turi o'quvchidan hikoyadagi gaplarni qayta qurishni talab qiladi. Chunki hikoya I shaxs nomidan berilgan bo'lsa, uni III shaxs, III shaxs nomidan bo'lsa, I shaxs nomidan hikoya qiinishi hamda kesimlar shaxs va sonda moslashtirilishi lozim. Ayrim hollarda I shaxs nomidan berilgan hikoyalarni III shaxs nomidan bayon qilishda shaxsni aniq k'rsatish uchun unga ism ham tanlanishi umkin.

Quyida grammatik topshiriqli bayon yozish uchun matn namunalari keltiriladi.

Ming oltin

Bir kuni padarbuzrukvorim menga ko'p qo'ylarni sotib kelishni topshirdilar. Men qo'ylarni Samarqand bozorida ming tillaga sotdim. So'ng bozor aylandim. Bozorda qo'lida she'r yozilgan qog'ozni ushlab turgan qalandarni ko'rib qoldim. Qalandar kimki, shu yozuvning qadriga yetib ,ming oltinga olsa, dunyoning oxiriga yetishini so'zlardi.

Men qalandarga ming tilla berdim. U qog'ozni berayotib , uni otam oldiga borganimda ochishimni aytdi. Qog'ozni padarbuzrukvorimga berdim, ochib o'qidilar. Unda yaxshilik bilan nom qoldirish aytilgan ekan

Otam ming oltinga olingan hikmatiga rioya qilishimni aytdilar. Men padaribuzrukvorim aytganlarini bajarishga ahd qildim. (84 so'z)

Imlo: bosh harflarining yozilishi eslatiladi Samarqand, tilla, Temurbek, oxiriga, hikmatga, ahd so'zlarining imlosi ustida ishlanadi.

Tahlil: Matn o'qib o'rganilgach qo'yni kim sotganligi , kim bozor aylanganligi aniq ko'rsatish uchun ism (Temurbek) tanlanadi. So'ng quyidagi savollarga javob olinadi.

Temurbek nima uchun Samarqand bozoiga bordi?

U bozorda kimni ko'rdi? Qalandar nima derdi? Temurbek ming tillani nikm qildi?

U nimani bajarishga ahd qildi?

Topshiriq:

- 1) Matnni III shaxs tilidan hikoya qiling.
- 2) Shaxsni aniq ko'rsatish uchun tanlangan ismdan foydalaning.
- 3) Hikoyaning 4-5 qismiga sarlavha toping.
- 4) Tuzgan rejangiz asosida III shaxs tilidan bayon yozing.

Reja:

- 1) Temurbek qo'y sotdi
- 2) Temurbek qalandarni ko'rdi
- 3) Qalandarning so'zi
- 4)
- 5)

Xat taxtaga quyidagi so'zlar yoziladi.: Padaribuzrukvori, Temurbek, hikmat, ahd.

Sarkarda

Chingizxon Hind daryosi sohilida Jaloliddinga qarshi urush boshladi va g'alaba qozondi chunki dushman askarlari ko'p edi.

Jaloliddin dushman qo'lida bandi bo'lishni istamadi. U onasi , xotini va bolalarini ham Chingizxon qo'lga tushishini xohlamadi. O'z istaklariga ko'ra ularni noiloj daryoning tezoqar qirg'og'iga tashladi, o'zi esa sodiq navkarlari bilan otda daryoniing narigi tomoniga o'tib oldi.

Chingizxon Jaloliddinning jasorati va mardligiga qoyil qoldi. U lashkarboshilariga uzoqda o'ziga musht ko'rsatib ketayotgan Jaloliddinni ko'rsatib, undan o'rnak olishga chaqirdi.

Jaloliddin 1231 yil dushman bilan bo'lgan jangda fojiali halok bo'ldi (85 so'z).

Imlo: **h** va **x** undoshlarining talaffuz qilinishi va imlosi eslatiladi: qirg'og'iga, musht, halok so'zlari ustida ishlanadi. "bandi " so'zi o'rnida yana

qanday soʻz (asir) ishlatish mumkinligi soʻraladi. Atoqli otlarning yozilishi eslatiladi.

Tahlil: Kim senga senga qarshi kurash boshladi? Nima uchun dushman gʻalaba qozondi? Sen nimalarni istamading? Chingizxon kimga qoyil qoldi va lashkarboshilariga nima dedi? 1231-yil qanday voqea sodir boʻldi?

Topshiriq

1. Hikoyani I shaxs tilidan soʻzlab bering
2. Berilgan reja asosida I shaxs tilidan bayon yozing

Reja

- 1) Chingizxon gʻalaba qozondi
- 2) Bandilikdan qutulish
- 3) Chingizxon qoyil qoldi
- 4) Oʻrnak olishga chaqirdi
- 5) Fojia

Nutqiy hodisa sanalmish matn oʻquvchi tomonidan bajariladigan ijodiy ishlarning oliy koʻrinishi boʻlib, uni yaratishga oʻrgatish bolaning til chiqarganida, tevarak atrofini idrok qilganidan boshlab, to taʼlimning soʻnggi damlarigacha davom etadi.

Matnda mazmun birlamchi, hajm ikkilamchidir. Har bir matn maʼlum bir narsa, voqea-hodisani tasvirlaydi, u haqda xabar beradi, soʻzlovchining munosabatini ifodalaydi. Shuning uchun matnni baholashda avvallo uning mantiqan toʻgʻri qurilganligi, mazmunning soʻzlovchi yoki yozuvchi maqsadini toʻla qamrab olganligi inobatga olinadi. Oʻquvchi aytmoqchi boʻlgan fikrini matnda qanchalik toʻgʻri, aniq, ravon ifodalay olsa, shunchalik uning til imkoniyatlaridan nutqiy faoliyatda foydalanish darajasini yuqori boholash mumkin.

Matn oʻz tuzilishiga koʻra gap, murakkab sintaktik butunlik, xat boshi, boʻlim, qism, bob va paragraflardan tashkil topish mumkin. Oʻquvchilar tomonidan yaratilgan matnlar esa, asoson, gap, abzats va

qismlardan iborat bo'ladi. Bu birliklar, albatta matn hosil qilishda ishtirok etadi va uni shakllantirishda muhim ahamiyatga molik bo'ladi.

O'quvchilarni yozma matn tuzishga o'rgatish 1-sinfdan boshlab izchillik bilan amalga oshiriladi. «Alifbo» davrida ko'proq og'zaki matnlar ustida ish olib boriladi. «Ona tili» fanini o'rganish boshlangandan keyin yozma nutqqa e'tibor kuchaytiriladi. Ta'limning boshlang'ich bosqichida o'quvchilar tomonidan yaratiladigan matnlar bevosita ular kuzatgan, ko'rgan, o'qigan narsa, voqea-hodisa, ishlab chiqarish jarayoni kabilar xususida bo'ladi. Chunki bu yoshda ularning mavhum narsalar haqida fikrlashi ancha qiyin.

O'quvchilarni matn yaratishga o'rgatishning dastlabki qadami ularning so'z zaxirasini oshirishdan boshlanadi. Yetarli so'z zaxirasiga ega bo'lgan shaxsgina ularni to'g'ri va o'rinli qo'llab gap tuza oladi, matn yaratadi. Bu murakkab ishni amalga oshirish «O'zbek tili» Respublika doimiy anjumanining 3-yig'inida (Jizzax, 1995) muhokama ob'ekti bo'ldi.

Ona tili mashg'ulotlarida so'z ustida ishlash jarayoni bilan bog'lanib, bir yaxlitlikni tashkil etadi. Ayni bir mashg'ulotda ham o'quvchining so'z boyligi oshiriladi, ham gapda so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish mahorati kengaytiriladi, ham matn tuzishga o'rgatiladi. Tilga olingan malakalarini tarkib toptirish o'rganilishi ko'zda tutilgan har bir til hodisasining tarkibiy qismiga aylansagina, muvaffaqiyatli kechadi. Shunki alohida ta'kidlash joizki, ona tilidan tashkil etiladigan mashg'ulotlar ko'pgina beriladigan so'zlarni gurahlash, har bir guruhni mustaqil davom ettirish, matnni o'qish va tahlil qilish bilan boshlanib, matn yaratish bilan yakunlanadi. Demak, har bir ona tili mashg'ulotini so'nggi natijasi matn yaratishdir.

Nutqning og'zaki va yozma shakllari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ona tili mashg'ulotlarida har ikkalasi bab-baravar. Og'zaki nutq odatda tovushli so'zlashuv nutqi bo'lib, u o'quvchilarda ko'proq ohang turli imo-ishoralar bilan ish ko'rish, mantiqiy o'rg'udan foydalanib, ma'lum bir so'zni alohida ta'kidlash, nimanidir mimika, ko'z, qo'l, bosh bilan

ifodalashni tarkib topshirishni taqaz etadi. Og‘zaki nutqda fikrni ixcham ifodalash maqsadida to‘liqsiz gaplardan foydalanish mahorati ustida mutassil ish olib borish kerak.

Yozma matn tuzish og‘zaki matn tuzishga qaraganda ancha murakkabroq. Chunki matnning o‘quvchidan jumla qurilishiga, tinish belgilarining qo‘llanishiga abzatlardan foydalanishga qat’iy amal qilishni taqozo etadi.

Umuman olganda, o‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatish uchun ularni bosqichma-bosqich zaruriy malakalar bilan qurollantirish ham muhim ahamiyatga ega. 3-4- sinflarda belgilangan (qurollantirish ham) o‘quv soatlarini tejash hisobidan matn uchun material yig‘ish, ularni saralash, fikrlarni muayyan izchillikda bayon qilish, yaratilgan matnni takomillashtirish, uni tahrir qilish malakalari ustida ish olib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Otaxonova Nasibaning 4-sinf Ona tili fanidan “Nutq. Matn” mavzusiga bir soatlik dars ishlanmasi.

Mavzu: Nutq. Matn

Darsning maqsadi:

- a) o‘quvchilarning nutqning ifodalanishi, shakllari va matn haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Mashqlarda berilgan matnlar orqali o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish. Ertaklar orqali zehni o‘stirish. O‘quvchilarning lug‘atini yangi so‘zlar bilan boyitish;
- b) o‘quvchilarga tabiiy hodisalar haqida tushuncha berish. Tabiat va vatanga muhabbat, ularni asrash tuyg‘ularini shakllantirish.

Darsning metodi: mustaqil ish metodi.

Darsning jihozi: rasmlar, kitoblar, plakatlar.

Darsning borishi:

1. Uyga vazifasini tekshirish 81- mashq yuzasidan suhbat:

- “Kuz” mavzusida insho yozish uchun tayyorlandingizmi?
- Qanday soʻzlardan foydalanasiz?
- “Kuz” matnini yaratishda nimalarga eʼtibor berasiz?

Oʻquvchilar ob-havodagi oʻzgarishlar, tabiatdagi oʻzgarishlar, kuzgi ishlar haqida oʻz fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Mustaqil ish. 82-mashq. Rasmni kuzating. Rasm asosida uch-toʻrt gapli hikoya tuzing. Hikoyangizga sarlavha qoʻying.

Rasm asosida tuzgan hikoyangiz nima deyiladi?

2. Darslik bilan ishlash.

83- mashq. Oʻquvchilar sheʼriy matnni oʻqiydilar. U nima haqidaligini gapirib beradilar.

Yurtdoshim, bogʻingga bir nihol qada,
 Bu nihol nomini „Yaxshilik“ ata.
 Niholning yoniga bir gul ekib qoʻy,
 Bu gulning nomini „Goʻzallik“ deb qoʻy.
 Gul-u niholingga baxsh etib hayot,
 Suv ber va bu suvga „Mehr“ deb ot qoʻy.

Erkin Vohidov

Siz kelgusida Vatanningiz ravnaqiga qanday hissa qoʻshmoqchisiz?

Fikringizni uch-toʻrt gap bilan ifoda qiling va yozing.

Qoida:

Nutq gap orqali ifodalanadi. U bir yoki oʻzaro mazmunan bogʻlangan bir necha gaplardan tuziladi. **Nutq** ogʻzaki va yozma shaklda boʻladi.

84-mashq. Oʻquvchilar matnni oʻqiydilar. Nutq nechta gapdan iboratligini topadilar. Ayrim soʻzlar maʼnosini izohlanadi.

KENJA BOTIR

Afandining ikkita o'g'li bor edi. Boy ulardan birining uyuda ishlab berishini talab qildi.

- Qaysi biring borasan? - deb so'radi ota o'g'illaridan.

Kenja o'g'il shunday deb javob berdi:

-Agar akam borsa, men uyda qolaman. Mabodo, Won uyda qolsam, akam borar.

Abdumalik Isomiddin

Boynikiga ishlashga kim bordi? Javobingizni yozing.

O'quvchilar ijodiy fikrlab mustaqil ravishda mulohazalarini bildirishi kerak.

3. Uyga vazifa.

85-mashq.

„Bizning oilamiz“ mavzusida hikoya tuzing va yozing. Hikoyangiz nimalardan tuzildi? Siz fikringizni qay shaklda bayon qildingiz? Hikoyada gapning maqsadga ko'ra qaysi turlari qatnashdi? kabi topshiriq beriladi.

4. Darsning yakunida savol va topshiriqlar ustida ishlanadi. Grammatik o'yin o'ynaladi:

O'quvchilar 87- mashqni bajaradilar. Matnni o'qiydilar. Gaplar o'zaro qanday bog'langanligini tushuntiradilar? Sinf ikki guruhga ajratiladi.

FUTBOL O'YINI TARIXIDAN

18-asrda futbol o'yini keng tus oldi. Ba'zan o'yinda bir tomondan besh yuz kishi maydonga tushardi. To'pni shahar bo'ylab ma'lum bir joyga birinchi eltgan komanda g'olib sanalardi. Qo'y terisidan tikilib, ichiga latta-puttalar to'ldirilgan to'p tepilardi.

Futbolni ingliz qirollari ko'p marta taqiqlaganlar, lekin davom etaverardi.

19-asrda futbol sport turiga kiritildi va o'n uchta qoidasi ishlab chiqildi.

O'quvchilarga topshiriq beriladi:

- matnni nechta qismga ajratish mumkin?

- matnga reja tuzing.
- rejangiz asosida matnni qayta hikoyalang.

2.3. Lug`at ustida ishlash orqali o`quvchilar nutqini o`stirishning ahamiyati.

O`quvchilarning nutq madaniyatini o`stirish til va adabiy ta`limda muhim ahamiyatga ega. Chunki og`zaki va yozma nutqni yaxshi egallagan o`quvchi barcha fanlarni oson va to`liq o`zlashtiradi, unda bilim olishga va yangiliklarga intilish tobora kuchayadi.

Hozirgi zamon pedagogikasida o`quvchilar nutqini o`stirishga muhim pedagogik muammo sifatida qaraladi.

Matn ustida ishlash orqali o`quvchilar nutqini o`stirish eng maqbul usullardan bo`lib, bu jarayonda quyidagi ko`nikma va malakalar hosil qilinadi:

- Bilim olish;
- To`g`ri, ravon va ifodali o`qish;
- Ijodiy va mustaqil fikrlash;
- Tahlil qilish va kerakli xulosa chiqarish;
- Odob-axloqli bo`lish;
- Nutq madaniyatini egallash.

O`quvchilarni og`zaki va yozma nutqlarini baravar rivojlantirishga harakat qilish lozim, chunki har ikkala nutq shakli bir-birining o`sishi hamda takomillashib borishi uchun xizmat qiladi. Asar matni ustida ishlashda ham bu talablarga amal qilinadi.

Boshlang`ich sinf o`qish darslari yuqori sinflardagi adabiyot darslarining tarkibiy qismi bo`lib ulardagi asosiy ish turi matn ustida ishlashdir.

Asar matni ustida ishlash orqali ham og`zaki ham yozma nutq o`stirishni o`qish darslarida o`rganiladigan matnlar misolida ko`rsatish mumkin:

1. Lugʻat ustida ishlash orqali nutq oʻstirish.

Bunda oʻquvchilar matni oʻqib boʻlgach, undagi notanish soʻzni aniqlaydilar va oʻqituvchi yordamida ularni tushunib oladilar. Masalan, 4-sinf "Ona tili" kitobida keltirilgan "Kuz" (sheʼr) matni ustida quyidagicha lugʻat ishi oʻtkazish mumkin:

yel – shamol

palla – vaqt

gul – oʻsimlik turi

zamin – yer

2. Matn mazmunini qayta hikoya qilish orqali nutq oʻstirish.

Mazkur turda oʻquvchilar matn mazmunini qisqartirib, kengaytirib, obrazlarni oʻzgartirib, oʻz fikrlarini bildirib qayta hikoya qiladilar. Qayta hikoyalashda, albatta, matndagi soʻzlardan foydalanish yaxshi samara beradi. "Kuz" sheʼrini qayta hikoyalashda oʻquvchilar asosiy oʻrinlarni ajratishi, lugʻat ustida ishlash orqali oʻrgangan soʻzlarini ishlatishi lozim. Bunday qayta hikoyalash quyidagicha boʻlishi mumkin:

"Kuzda shamol gʻir-gʻir esadi. Kuz sentabr oyidan boshlanadi. 1-sentabrda oʻqish boshlanadi. Barcha oʻgʻil-qizlar qoʻllarida kitob va gullar bilan maktabga borishadi.

Quyosh havoni unchalik qizdirmaydi, daraxt barglari sargʻayib toʻkila boshlaydi. Hosillar yigʻib olinadi."

3. Matnga oid savol-javoblar ustida ishlash orqali nutq oʻstirish. Bunda faqat darslikdagi savol va topshiriqlar bilangina cheklanib qolmay, balki har bir darsda oʻquvchilarni oʻylashga, mulohaza yuritishga chaqiruvchi yangi savollar tuzish va oʻquvchilar hukmiga havola etish lozim. "Kuz" matniga oid quyidagicha yangi savollar tuzish mumkin

1. Kuz qaysi oydan boshlanadi?

2. Nima uchun oltin kuz deymiz?
3. Kuzgi ishlar haqida nimalar bilasiz?
4. Kuzdagi tabiat ko'rinishini tasvirlang?

4. Test topshiriqlar ustida ishlash orqali nutq o'stirish. Bu usul o'quvchilarni har tomonlama o'ylashga, matn mazmunini chuqurroq o'zlashtirishga, matndagi har bir so'zga alohida ahamiyat berishga o'rgatadi. Test usuli o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ular berilgan topshiriqlarni bajonidil bajaradilar. Masalan, "Kuz" she'riga oid quyidagicha test topshiriqlarini tuzish mumkin.

1. Kuz qaysi oydan boshlanadi?
 - A. avgust
 - B. noyabr
 - C. oktabr
 - D. sentabr
2. Nima uchun oltin kuz deymiz?
 - A. daraxtlar gullaydi
 - B. yaproqlar sarg'ayadi
 - C. yerdan ko'katlar unib chiqadi
 - D. daraxtlar kurtak ochadi
3. Kuzgi ishlar haqida nimalar bilasiz?
 - A. ekinlar ekiladi
 - B. hosil yig'ib olinadi
 - C. ko'chatlar ekiladi
 - D. paxta ekiladi

Yuqoridagi usullardan o'rinli va unumli foydalanish yaxshi samara beradi. Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning lug'at boyligi har jihatdan boyib boradi.

Matndagi iboralar, so'z va so'z birikmalari o'quvchilar nutqiga ko'chib, ular nutqining jozibador bo'lishiga olib keladi. Qadimdan nutq madaniyati va odobiga alohida ahamiyat berilib kelingan. Misol uchun

Kaykovus o'zining "Qobusnoma" nomli asarida farzandiga qarata shunday deydi: "...Ey farzaand, so'zning yuzin va orqasin bilgil va ularga rioya qilg'il, har ne so'z desang yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysan.

Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o'xsharsankim, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning manosin bilmas.

....So'zni bag'oyat ulug' bilg'il, so'z osmondin kelmas va ul xor narsa emasdur. Qay bir so'zniki bilsang joyini o'tkazmay aytgil, vaqtni zayl qilmagil, yo'q ersa donishga sitam qilg'on bo'lg'oysan. Har so'z desang rost degil va be'ma'nilikni da'vo qilguvchi bo'lmag'il".

Matn yaratish o'quvchilarning nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Matn yaratishning asosiy vazifasi o'quvchilarni sintaktik jihatdan to'g'ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirishga o'rgatish hisoblanadi.

Gap nutq birligi bo'lib, aloqa maqsadida xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhimi, birinchidan gap nutq birligi ekanligidir. Shunday ekan, nutqqa oid mashqlarga qo'yilgan talablar gap ustida ishlash mashqlariga ham taalluqlidir; ikkinchidan, gap-grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan birlik, demak, gap ustida ishlash grammatika bilan jips bog'liq bo'lib, gap qurilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi va gapning turlari ustida ishlash juda muhimdir; uchinchidan gap mazmun birligi bo'lib, tugallanganlik mazmunini bildiradi.

Binobarin, gapning mazmuniy asosi ustida ishlash va ularning gap qurilishiga bog'liqligi ustida ishlash zarur; to'rtinchidan, gapning talaffuzi katta ahamiyatga ega, shuning uchun intonatsiya mazmun bilan bog'liqligini tushuntirish juda zarur.

Ona tilini o'rganishda matn yaratish ta'lim sifatini ta'minlaydigan eng muhim shartlardan biri bo'lib, u o'quvchilarni o'zlari o'rganayotgan tilda fikr-mulohazalarini mustaqil va erkin bayon qila olish ko'nikmalarini takomillashtirish bilan belgilanadi. Mustaqil ishlashda belgilangan mavzu

asosida amaliy ish (mavzu bo'yicha mashqlar) bajarish hamda muayyan mavzu asosida izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Umumta'lim maktablarining Ona tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirish metodikasini yangi pedagogik texnologiya darajasida ishlab chiqish tadqiqot oldida turgan asosiy vazifa ekan, bu ishni muayyan printsiplarga amal qilgan holda bajarish talab etiladi.

O'qituvchi ta'lim jarayonini maqsad sari yo'naltirish borasida amal qiladigan eng muhim printsiplaridan biri o'quvchilarning ona tilidan olgan bilimlari, hosil qilgan ko'nikma va malakalari saviyasini hisobga olishidir. Ushbu printsiplarni quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- o'quvchilarning leksik va grammatik vositalar boyligi, fikr bayon qilish malakalari;

- bolalarning og'zaki va yozma nutqida uchraydigan turg'un xatolar (talaffuz va imloga doir xatolar, so'z va so'z shakllarini ishlatish, gap to'zish, matn yaratishdagi kamchiliklar);

Shunday ekan, nutq o'stirish ishining qulay, samarali va yangicha usullaridan foydalanib, o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirish, imloviy savodxon bo'lishiga ko'maklashish eng muhim vazifalardandir.

Bu ishlarni amalga oshirishda esa matn ustida ishlash texnologiyalaridan unumli foydalanish juda katta ahamiyat kasb etadi.

II bob yuzasidan qisqacha xulosa

Ona tili ta`limiga quyiladigan bosh maqsad «ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq bosh sharoitiga mos ravishda og`zaki, yozma shakllarda to`g`ri, ravon ifodalash ko`nikmalarini shakllantirish» bo`lganligi uchun ham o`quvchilarning fikrlash salohiyatini mantiqiy tafakkurini o`stirishga xizmat qiladigan ilg`or ta`lim usullari va vositalaridan o`rinli foydalanish zarur. Bu jarayonning samarasi har bir darsda o`qituvchi-o`quvchi –o`quv qurollari va vositalari munosabatlarining qanday yo`sinda tashkil etilishiga bog`liq.

O`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatishda yozma ishning bayon, insho turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bayonning, ayniqsa, ixcham bayon, qo`shimcha topshiriqli bayon, ijodiy bayon turlari, inshoning ijodiy insho turi o`quvchilarda ijodiy fikrlash malakasini yuksaltirishga xizmat qilishidan tashqari, ularda to`g`ri nutq tuzish ko`nikmasini ham shakllantiradi.

Barcha turdagi yozma ishlar o`quvchilarning ona tili darslarida olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Quyi sinflarda matn yaratishning oddiy shakllaridan (rasm asosida, atrof-muhit kuzatish asosida matn tuzishdir va b.) kengroq foydalanilsa va bu jarayon uzluksiz takomillashtirilib borilsa, yuqori sinflarda ijodiy va ijodiy fikrlashni taqozga etuvchi bayon va insho yozdirish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Shuningdek, lug`at ustida ishlash orqali ham takomillashtiriladi. Masalan, biror matn o`qib bo`lingach, undagi notanish so`zlar aniqlanib ularning talaffuzi va imlosi tushuntiriladi. Ayrim qiyin so`zlar ma`nosi izohlanadi.

Matn mazmunini qayta hikoya qilish orqali ham nutq o`stirish mashg`ulotlari amalga oshiriladi.

XULOSA

Matn nutqiy hodisa bo'lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmuniy bog'lanishlar tashkil topadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan yartiladigan matnlar asosan gap va kichik matnlardan iborat bo'ladi. Bunday matnlar yaratishda ko'proq tasvirlash, rivoyat va hikoyalar, muhokama qilish usullari ko'proq foydalanish mumkin.

Ona tili darslarida o'quvchilarga faqat grammatik qoidalarini yodlatish emas, balki, ko'proq ularning og'zaki va yozma nutqlarining ravon va erkin bo'lishiga erishish maqsadida kichik - kichik matnlar yaratishga harakat qilinadi.

Matn yaratish dastlab "Ona tili" darslarida keyinchalik esa ularga "O'qish" darslarida har xil mavzudagi matnlarni o'qish, yozma ravishda tayyorlash yo'llari bilan mukammallashtirilib boriladi:

1. Ona tili ta'limiga qo'yiladigan bosh maqsad «ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq bosh sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish» bo'lganligi uchun ham o'quvchilarning fikrlash salohiyatini mantiqiy tafakkurini o'stirishga xizmat qiladigan ilg'or ta'lim usullari va vositalaridan o'rinli foydalanish zarur. Bu jarayonning samarasi har bir darsda o'qituvchi-o'quvchi –o'quv qurollari va vositalari munosabatlarining qanday yo'sinda tashkil etilishiga bog'liq.

2. Matn ustida ishlash boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishning eng ma'qul usullaridan biri hisoblanadi. Buning uchun ularning og'zaki va yozma nutqlarini baravar rivojlantirib borish kerak. Biror asar matn ustida ishlashda ham bu talablarni unutmazlik lozim. O'quvchilarda ijodiy fikrlash va ijodiy matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga oid tashkiliy-metodik ishlarni asosan o'tilgan darsni mustahkamlash jarayonida, shuningdek, uy vazifalari bajarishga yo'llanma berish davrida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Ijodiy yozma ishlarga bosqichli tayyorgarlik ko'rishga o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va mustahkamlashning uzviy hamda keng qamrovli jarayoni sifatida yondashish, uni oqilona tashkil etish borlikni anglash va bilishning muhim shartidir.

4. Ona tili darslari jarayonida ijodiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ishlarni tashkil etish va o'tkazish uch bosqichli tayyorgarlikni taqozo etadi. Bular quydagichadir: a) tinglangan yoki kuzatilgan holatga qadar sodir bo'lgan voqea-hodisa haqida bildirilgan fikr-mulohazalar; b) mavjud holat tavsifi va unga munosabat; v) ushbu holatning mantiqiy davomi haqida o'quvchilarning ijodiy fikrlari.

5. Darslarda ijodiy vazifalarni mustaqil bajarishga ajratilgan vaqt 15 daqiqadan oshmasligi hamda o'tilayotgan mavzuning maqsad-vazifalariga bevosita bog'liq tarzda metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi lozim.

6. Ona tili darslarini tashkil etish shunday murakkab jarayonki, unga hamma vaqt ham bir qolipda, bir xil yo'nalishda yondashib bo'lmaydi. Bu esa o'quvchini ijodiy fikrlashga o'rgatish uchun mashg'ulotlarda o'rni bilan induktiv va aralash metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

7. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda yozma ishning bayon, insho turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bayonning, ayniqsa, ixcham bayon, qo'shimcha topshiriqli bayon, ijodiy bayon turlari, inshoning ijodiy insho turi o'quvchilarda ijodiy fikrlash malakasini yuksaltirishga xizmat qilishidan tashqari, ularda to'g'ri nutq tuzish ko'nikmasini ham shakllantiradi. Barcha turdagi yozma ishlar o'quvchilarning ona tili darslarida olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

9. Quyi sinflarda matn yaratishning oddiy shakllaridan (rasm asosida, atrof-muhit kuzatish asosida matn tuzishdir va b.) kengroq foydalanilsa va bu jarayon uzluksiz takomillashtirilib borilsa, yuqori sinflarda ijodiy va ijodiy fikrlashni taqozo etuvchi bayon va insho yozdirish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Shuningdek, lugʻat ustida ishlash orqali ham takomillashtiriladi. Masalan, biror matn oʻqib boʻlingach, undagi notanish soʻzlar aniqlanib ularning talaffuzi va imlosi tushuntiriladi. Ayrim qiyin soʻzlar maʼnosi izohlanadi.

Matn mazmunini qayta hikoya qilish orqali ham nutq oʻstirish mashgʻulotlari amalga oshiriladi.

Umuman, boshlangʻich sinfda oʻquvchilarni matn ustida ishlashga oʻrgatish ularning ogʻzaki va yozma savodxonligini oshirishga yaqindan yordam beradi. Bu esa IV - sinfni tugatayotgan oʻquvchilarning DTSi talablariga mos bilim va koʻnikmalarni toʻla egallashlarini taʼminaydi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini matn ustida ishlash darslaridan berilgan namunalar natijasi shuni koʻrsatadiki, Qoraqolpogʻiston Respublikasi hududida oʻtkazilgan tajribalar natijasiga koʻra ogʻzaki matn yaratishda dialektal xatolarning koʻp uchrashuvi, yozma matnda va imlo va ishoraviy xatolarning koʻpligi kuzatildi. Bunday kamchiliklarni ham bunga odatlantirish lozim. Shuningdek, oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqini oʻstirishda odatiy til meʼyorlarini singdirib borish va ular nutqining ravon, hamda adabiy til meʼyorlariga mos - boʻlishiga erishishimiz kerak.

Xullas, matn yaratishga oʻrgatish orqali oʻquvchilarning nutqiy koʻnikma va malakalarini oshirish ona tili mashgʻulotlarida koʻzlanadigan bosh maqsad boʻlib, u soʻz ustida ishlash, gap ustida ishlash va matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. Ona tilidan istalgan bir mavzuni oʻtishda oʻqituvchi oʻz oʻquvchilarini ijodiy fikrlashga oʻrgatib, fikrni ogʻzaki va yozma shakllarda bayon qilish ustida ishlashni tashkil eta olmogʻi lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va kelajagiyo`lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. Tosh 2015
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” –T.: 1998.
4. N.Maxmudov. Madaniy nutq muammolari.O`zbek tili doimiy anjumani. Ta`lim jarayonida nutq madaniyatini shakillantirish masalalari T. “Sharq” 1999 yil.
5. Abdullayeva Q., Mahmudova M., Yusupova M., Rahmonbekova. O`qish kitobi. 2-sinf.
6. Boshlang`ich sinflarda ona tilini o`qitish metodikasi (Ma`ruzalar matni) 2-qism, G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh, – T.: 2002.
7. Ikromova R., G`ulomova X., Yo`ldasheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: O`qituvchi, 2011.
8. Xudayberganova M. va b. 3-sinfda ona tili darslari. – T.: O`qituvchi, 2004.
9. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo`ldosheva Sh. "Ona tili" 3-sinf darslik. – Toshkent: O`qituvchi, 2010. -142 b.
10. Qosimova K va b. Ona tili o`qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009.
11. G`ulomov A. «Ona tili o`qitish prinsiplari va metodikasi» T. «o`qituvchi» 1992 y.
12. Ne'matov H, G`ulomov A. «Ona tilidan ta`lim mazmuni» T. o`qituvchi» 1995 y.

13. Sobirova M. Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchi so'z boyligini oshirish.
Til va adabiyot ta'limi. Toshkent, 1998, 1-son.
14. Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari «O'zbek tili»
doimiy anjumani to'rtinchi yig'inining tezislari. (1997 yil, 11-12-aprel)
Toshkent, 1997
15. G'ulomov X. O'quvchilarning matn ustida ishlashi. «Til va adabiyot
ta'limi» jurnali. Toshkent. 1994, 2-3 sonlar,

Internet ma'lumotlar

1. www.edu.uz
2. www.flogiston.ru
3. www.pedagog.uz
4. www.psvchology.uz
5. www.psychology.net.ru
6. www.psychology.net.ru
7. www.tdpu.uz